O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC
SAFETY OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN

ISSN 3030 - 3230

JAMOAT XAVFSIZLIGI

Ilmiy-amaliy jurnali

Scientific - practical journal of

PUBLIC SAFETY

MAXSUS SON

www.mgjxu.uz

@jamoatxavfsizligiuniversiteti2120

t.me/jamoat_xavfsizligi_universiteti

jamoatxavfsizligi_universiteti

MUSTAQILLIGIMIZNING
33 YILLIGI

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
ОГЛАВЛЕНИЕ

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda Milliy gvardiya organlarining o‘rni — **Djurayev R.M.** — 3

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda inson huquqini takomillashtirish istiqbollari — **Rustambayev M.X.** — 7

Prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini tashkil etish: xorijiy tajriba misolida — **Samadov S.I.** — 10

Toshkent shahrida “Xavfsiz poytaxt” konsepsiyasini joriy etishning ijtimoiy zarurati va ahamiyati — **Tashpulatov A.A.** — 16

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etish samaradorligi — **Xatamov R.A.** — 21

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik deputati va Senat a’zosi huquqiy maqomining konstitutsiyaviy takomillashuvi — **Zulfiqarov Sh.X.** — 28

Insonning ekologik huquqini ta’minlash muammolari — **Usmonov M.B.** — 35

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyati — **Raximov A.** — 41

Yangilangan konstitutsiya sharoitida qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirishning istiqbollari — **Xusanova M.** — 48

Davlat chegarasi rejimini ta’minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirish — **Xolbo‘tayev A.A** — 52

Guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishi: omillar va ularning o‘ziga xos jihatlari — **Abdullayev A.Y.** — 56

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning protsessual tartibini takomillashtirish masalalari — **Jo‘rayev J.R.** — 64

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy intizomni mustahkamlash va harbiy xizmatchilar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari — **Rizoyev F.F.** — 74

Актуальные вопросы обеспечения надежной защиты прав и интересов собственника имущества — **Чиниев Д.** — 78

Davlat va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishning meyoriy-huquqiy asoslari — **Kadirov M.B** — 82

Sha’n va qadr-qimmatga qarshi jinoyatlarning obyekti — **Sarsenbaev A.M.** — 88

Hozirgi davrda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy savodxonligini shakllantirishning pedagogik diagnostikasi — **Umbetov O.O.** — 92

Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llashni tartibga soluvchi milliy qonunchilik hujjatlari tahlili — **Mirazov D.M., Ikanov A.A.** — 99

MUNDARIJA

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarni jamoat xavfsizligiga salbiy ta'sirini baholash modellari
Sodiqov M. 106

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi va barqarorligini mustahkamlashdagi siyosatining yangi tendensiyalari
Sattorov A.A. 111

O'zbekisatonda jamoat xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash - Milliy gvardiya faoliyatining asosiy mezoni
Haydarov A.U. 116

Совершенствования военного законодательства в сфере подготовки квалифицированных кадров вооруженных Сил Китая
Девяткин А.В. 123

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda teleskopik tayoqlardan foydalanishning huquqiy asoslari: xorijiy tajriba
Yunusov D.B. 130

Оптоэлектронные метод определение содержания одного вещества в другом
Тураев Б.Э. 135

Favqulodda vaziyatlarda FPV dronlaridan foydalanish va talofatlar yuzasidan olingan tasvirlar orqali zararlarni minimallashtirish
Kuldashev I.X., Kamolov A.A. 139

Jangovor chaqiriq va uning mazmun-mohiyati
Bokiyev M.G. 143

Некоторые особенности стратегии «Справедливый казахстан»
Бариев Э.Ф. 147

Harbiy-kasbiy tayyorgarlik: mustaqillik yillarida
Isakov S.X. 151

Harbiy xizmatchilar maqomi haqidagi zamonaviy qarashlar
Tursunboyev A.A. 156

"Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida zamonaviy islohotlar va ularning turizmga ta'siri
Tursunova S.R. 161

Mustaqillik yillarida yoshlarda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining yangi mexanizmlarini shakllanishi
Salimov M.E. 165

Psychotechnical methods of detecting psychological stresses that negatively affect the service activities of servicemen
Shermatov F.T. 169

Psixologik xizmat – kadrlar salohiyatining muhim omili sifatida
Madjitov F.F. 175

Интеллект и его виды при осуществлении нежелательных действий в жизни и деятельности человека
ПоликарповВ. А., Кдирбаева Х.М. 178

O'zbekiston respublikasi qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarini ijtimoiy himoya qilish tushunchasi va uning mohiyati
Djaydakbayev F.T. 184

Iqlim o'zgarishlari sharoitida o'zbekistonda inkluziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash islohotlari va muammolari
Elov A.A. 189

Korxonani ijaraga berish munosabatlarini tartibga solishda shartnomaning tutgan o'rni va ahamiyati
Nuridullayev A.A. 194

HARBIY XIZMATCHILARNING JINOIY QILMISHLARI BO‘YICHA TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV O‘TKAZISHNING PROTSESSUAL TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Jo‘rayev Javlon Ravshan o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada jinoiy qilmish, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishi, tergovga qadar tekshiruv, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv tushunchalari yoritilgan va harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda hozirgi kunda uchrayotgan amaliyotdagi va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi muammolar tahlil qilingan hamda xorijiy davlatlarning protsessual qonunchiligidagi tajribalaridan kelib chiqib tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning protsessual tartibini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.**

Kalit so‘zlar: jinoiy qilmish, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishi, tergovga qadar tekshiruv, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv, protsessual muddatlar, tergov harakatlari, tushuntirishlar olish, hozir bo‘lish majburiyati.

Dunyoda jinoyat ishlari bo‘yicha ish yurituvining huquqiy asoslari va protsessual tartibini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, harbiy xizmatchilarning jinoyat subyekti sifatida huquqlarini ta’minlash maqsadida qo‘shimcha kafolatlarni belgilash, sudga qadar ish yurituvini yanada insonparvarlashtirishga qaratilgan yangi institutlarni joriy etish hamda amaldagilarini kengroq qo‘llashga erishish, jinoyatning sabablari va uni sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari yuzasidan sudga qadar ish yuritishning o‘ziga xos jihatlari, harbiy xizmatchilarning bu jarayonda protsessual huquqlarini ta’minlash va Jinoyat kodeksining fuqarolarning qonun oldida tengligi va ayb uchun javobgarlik prinsiplariga rioya etish zarurligi mazkur masalalarga alohida e’tibor qaratilishini talab etadi.

Jahonda jinoyat protsessining sudga qadar ish yuritish bosqichida dispozitiv normalarni qo‘llash va tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda inson huquq va erkinlarini ta’minlash bo‘yicha xalqaro standartlarni joriy qilish, tergovga qadar tekshiruv jarayonida shaxslarning huquqiy maqomini takomillashtirish, sudga qadar ish yurituvida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini hisobga olish, tergovga qadar tekshiruv instituti ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilib, mazkur munosabatlar doirasida harbiy xizmatchilar huquqlarining kafolatlarini ta’minlash, ularning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv institutini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, xususan tergovga qadar tekshiruv davrida shaxslarning huquqlarini ro‘yobga chiqarish, ularning konstitutsion huquqlarini cheklash holatlarini oldini olish va sudga qadar ish yurituv bosqichining protsessual tartibini takomillashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruv institutini rivojlantirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston–2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishida aynan 87-maqsad, “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish”[1] ko‘rsatib o‘tilgan. Unda tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomini aniqlashtirish, ushbu shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvoh huquq va majburiyatlaridan foydalanishini belgilash, tergovga qadar tekshiruv bosqichida ayrim tergov

harakatlarini o‘tkazishga ruhsan berish kabi ustuvor maqsadlar belgilangan bo‘lib, ularning bajarilishi mamlakatimizdagi har bir shaxsning xususan, harbiy xizmatchilarning huquq va erkinliklari kafolatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning protsessual tartibini takomillashtirish masalalariga to‘xtalishdan oldin jinoiy qilmish, harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishi, tergovga qadar tekshiruv va harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv tushunchalari bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Jumladan,

Jinoiy qilmish – sodir etilgan vaqtida Jinoyat qonunchiligi bilan taqiqlangan va himoyalanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazuvchi yoki zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaruvchi aybli ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikdir.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishi – chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari safidagi harbiy xizmatdagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining sodir etilgan vaqtida amalda bo‘lgan Jinoyat kodeksida taqiqlangan va himoyalanadigan ijtimoiy munosabatlarga ongli ravishda zarar yetkazuvchi aybli ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizligida namoyon bo‘luvchi faol yoki sust xulq-atvori hisoblanadi.

Tergovga qadar tekshiruv – jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini bajarishga qaratilgan, Jinoyat-protsessual kodeks bilan tartibga solingan, tergovga qadar tekshiruv organlari tomonidan jinoyat haqidagi ariza va xabar bo‘yicha jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlash va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy zarar qoplanishini ta’minlash uchun kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarini o‘tkazish va natijasiga ko‘ra jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki uni rad etish yoxud tegishligiga ko‘ra yuborish bo‘yicha qaror qabul qilish faoliyatidan iborat sudga qadar ish yuritishning alohida shakliga aytiladi.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv deganda – bu vakolatli mansabdor shaxs tomonidan harbiy xizmatchining sodir etgan jinoiy qilmishi bo‘yicha jinoyat-protsessual qonunchilikda ruxsat berilgan tergov harakatlarini o‘tkazish orqali uning harakatlarida jinoyat alomatlari mavjudligi to‘g‘risidagi to‘xtamga kelishi va ishni qo‘zg‘atish yoki ish yurituvni istisno qiluvchi holatlar aniqlanganda uni rad etish yoxud jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini hal etish uchun harbiy prokuratura organlariga yuborishga qadar kechuvchi protsessual harakatlar majmui tushuniladi.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruvni boshqa subyektlarga nisbatan qo‘llanilishdan farqli jihati bu – JPKning 391-moddasiga ko‘ra alohida mansabdor shaxs ya’ni harbiy qismlar, qo‘shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o‘quv yurtlarining boshliqlari, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsxonalari hamda turmalarning boshliqlari va JPKning 345-moddasi 3-qismiga ko‘ra harbiy prokuratura idoralari tomonidan amalga oshirilishi hisoblanadi. Ya’ni, mazkur ishlar bo‘yicha qarorlar faqatgina ushbu mansabdorlar tomonidan qabul qilinadi hamda harbiy prokuratura organlari tomonidan bevosita amalga oshiriladi yoki mazkur qarorlar ustidan nazoratni amalga oshiriladi. Qarorlar ustidan shikoyat qilish ham yuqori turuvchi aynan harbiy prokurorga berilishi mumkin.[2]

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha JPKda alohida ish yurituv tartibining mavjud emasligi, JKning yettinchi bo‘limida[3] nazarda tutilgan harbiy jinoyatlarning ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan toifalari bo‘yicha ish yurituvning surishtiruv shakli mavjud emasligi, ma’muriy preyuditsiya ishlarida harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan shu turdagi huquqbuzarliklar uchun MJtKning 16-moddasiga asosan[4] faqatgina intizomiy jazo chorasi qo‘llanilishi, mazkur moddalar yuzasidan harakatlarning takroriyligi jinoyat tarkibini beruvchi jinoyatlarda harbiy xizmatchilarning javobgarlik masalalari va boshqa ko‘plab huquqiy muammoli masalalar

bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv hujjatlarining aksariyatida tergovga qadar tekshiruv davomida protsessual muddatlarga rioya qilinmayotganligi aniqlangan. Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv davomida protsessual muddatlarga rioya qilinmayotganligiga asosiy sabablardan biri uzoq vaqt tekshirish talab etiladigan tekshiruvlardan so‘ng qabul qilingan qarorlarni harbiy prokuror tomonidan bekor qilinib qo‘shimcha tergovga qadar tekshiruv qaytarilgach, ishning keyingi mexanizmi yoki tergovga qadar tekshiruvning protsessual muddati, shuningdek boshqa organga oid ariza va xabar kelib tushgach, tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborishning protsessual muddatlari borasida jinoyat-protsessual qonunchilikda biror-bir me’yor mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv bo‘yicha ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishga zarurat mavjudligini, biroq O‘zbekiston Respublikasi JPKning 329-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq qo‘shimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shaxsni ushlab turish, shaxsiy tintuv va olib qo‘yish, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, ekspertiza o‘tkazish, taftish tayinlash, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish haqida topshiriqlar berish mumkinligi, biroq sanab o‘tilgan tergov harakatlaridagi boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish qat’iyan man qilingan.[2]

Xususan, yuzlashtirish, murdani eksgumatsiya qilish, ekspertiza uchun namunalar olish, guvohlantirish, abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish kabi jinoyat fakti mavjud yoki aksincha jinoiy holat yuz bermaganligini aniqlash uchun muhim hisoblangan tergov harakatlarini o‘tkazish mumkin bo‘lmaganligi tufayli huquqni qo‘llash amaliyotida turli xil muammolarni vujudga keltirmoqda.

Shuningdek, JPKning 329-moddasining ikkinchi qismiga ko‘ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tushuntirishlar talab qilib olish vakolatiga ega bo‘lsa-da, biroq ushbu tushuntirishlar olishning tartibi biror qonun hujjatlarida keltirilmagan.[2]

JPKning 329-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan qat’iy qoida ya’ni “... tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish man etiladi”[2] mazmunidagi norma mavjudligi sababli sud-tergov amaliyotida huquqni qo‘llovchi amaliyotchilarning qonun normalariga rioya etish fonida ishning haqiqiy holatlarini aniqlamasliklarini, qolaversa jamiyatning jinoyatchilikka murosasiz munosabatiga salbiy ta’sir etishiga olib kelishi mumkinligi va boshqa bir qancha muammolarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan:

- **birinchidan,** ishtirokchilarning ko‘rsatmalari olingan hollarda ko‘rsatmalarning to‘g‘riligi borasidagi ogohlantirishlar samara bermasligi, u yoki bu tartibning o‘zi mavjud emasligi, ya’ni bugungi kunda tergovga qadar tekshiruv davrida ishtirokchilardan tushuntirishlar olishda qanday protsessual qoidalarga rioya qilishi, qanday huquqlardan foydalana olishi va boshqa tartiblarning mavjud emasligi;
- **ikkinchidan,** tergovga qadar tekshiruv davrida protsess ishtirokchilarining biror-bir maqomi mavjud emasligi, jumladan kelgusida gumon qilinuvchi tariqasida jalb etilishi lozim bo‘lgan shaxsning, guvohning yoki jabrlanuvchi tarafning maqomi mavjud emasligi, ularning tergovga qadar tekshiruv vaqtida ruxsat berilgan tergov harakatlari davomida o‘z manfaatlarini himoya qilishda to‘sqinlik keltirib chiqarayotganligi, xususan ekspertizalar tayinlashda va o‘tkazishda JPKning 179-moddasida nazarda tutilgan huquqlardan foydalana olmasligi va boshqalar;
- **uchinchidan,** tergovga qadar tekshiruvda ishtirokchilarning xususan harbiy xizmatchilarning himoya huquqidan foydalana olmasliklari, biror-bir maqomi e’tirof etilmagan, unga nisbatan huquq va majburiyatlar aks etmagan ishtirokchining bunday huquqlarini ta’minlash borasida qoidalarning o‘zi mavjud emasligi;
- **to‘rtinchidan,** tergovga qadar tekshiruv jarayonida, ayniqsa yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq jinoyatlarga oid tergovga qadar tekshiruv jarayonida ekspertiza tekshiruvi uchun yoki qiyosiy tekshirish uchun namunalar olish yoki tergov eksperimenti bilan bog‘liq tergov harakatining o‘tkazilishiga zarurat mavjudligi;

beshinchidan, tergovga qadar tekshiruv davrida tergov harakatlari o‘tkazilishi uchun yoki tushuntirishlar olishda hozir bo‘lmagan shaxsni tergovga qadar tekshiruvga ta’minlashning protsessual qoidasi yoki tergovga qadar tekshiruv mansabdor shaxsining bu borada biror-bir vakolati mavjud emasligi;

oltinchidan, kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari sirasiga kiruvchi shaxsni tibbiy guvohlantirish, tintuv, yoki narsa-buyum, murdani ko‘zdan kechirish, pochta va telegraf jo‘natmalarini xatlash kabi tergov harakatlarini o‘tkazishga protsessual qoidalar yo‘l qo‘ymasligi;

yettinchidan, ba’zi tergov harakatlarini jumladan telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish tergov harakatini amalga oshirishda jinoyat ishi qo‘zg‘atishdan oldin amalga oshirilganligi, faqatgina tezkor tadbirlar sirasiga kirish kabi baholanib, ularning daliliy ahamiyatga olinmayotganligini, bunda surishtiruv-tergov amaliyoti xodimlari sun’iy ravishda jinoyat ishini eski muddat bilan qo‘zg‘atish va shu yo‘l orqali mazkur dalildan foydalanilishi kabi holatlar kuzatilayotganligi va boshqa hollar tergovga qadar tekshiruvning sifatini tushib ketishi, bunda daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan birlamchi muhim ma’lumotlar yo‘qolib ketishiga olib kelayotganligi kabi holatlar kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, JKning 238-moddasida guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berganligi uchun javobgarligi belgilanganligi, tergovga qadar tekshiruv vaqtida tushuntirish beruvchi shaxs guvoh, jabrlanuvchining huquqlaridan foydalanishi belgilangani holda, unga yolg‘on guvohlik bermaslik majburiyatini yuklash e’tibordan chetda qolganligini va tergovga qadar tekshiruv davrida tergov harakatlari o‘tkazilishi uchun yoki tushuntirishlar olishda hozir bo‘lmagan shaxsni tergovga qadar tekshiruvga ta’minlashning protsessual qoidasi yoki tergovga qadar tekshiruv mansabdor shaxsining bu borada biror-bir vakolati mavjud emasligi ko‘rishimiz mumkin.

Tergovga qadar tekshiruvga oid xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish doirasida Germaniya[5], Gruziya[6], Estoniya[7], Xitoy[8], Yaponiya[9], Janubiy Koreya[10], Birlashgan Arab Amirliklari[11], Saudiya Arabistoni[12], Rossiya Federasiyasi[13], Ozarbayjon[14], Ukraina[15], Tojikiston[16], Qirg‘iziston[17], Qozog‘iston[18] va Turkmaniston Respublikalarining[19] va boshqa bir qancha mamlakatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan qoidalarni tahlil qilindi. E’tiborli jihat sifatida, tergovga qadar tekshiruv davrida o‘tkazishga ruxsat beriluvchi tergov harakatlarini ro‘yxatini kengaytirish yoki mutloq zaruratga ko‘ra jinoyat faktini isbotlash yoki rad etishda ahamiyatini inobatga olib sudning ruxsatini olgan holda ushbu tergov harakatlarini o‘tkazishga ruxsat beruvchi normalarni qonunchilikda mavjudligi, bunda eksgumatsiya (Rossiya[13], Xitoy[8] va boshqalar), yuzlashtirish, qiyosiy tekshirishlar uchun namunalar olish, tibbiy guvohlantirish, ko‘zdan kechirishning barcha turlarini o‘tkazishga imkon beruvchi normalarni mavjud.

Shu bilan birga harbiy xizmatchilarning ish yurituvidagi o‘ziga xoslik, ya’ni eng avvalo shaxs, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga zarar yetishini oldini olish maqsadida harbiy va davlat sirlarini saqlash asnosida o‘ziga xos tartib joriy etilgan bo‘lib, o‘rganilgan xorij mamlakatlarining aksariyati (AQSh, Rossiya, Qozog‘iston, Estoniya, Gruziya va boshqalar)da harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha sudga qadar ish yurituvchi bosqichi harbiy politsiya tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, AQShning Virginiya shtatida tajribasida harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha sudga qadar ish yurituvida, xususan tergovga qadar tekshiruv davrida harbiy xizmatda bo‘lgan oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilardan himoyachilar bilan ta’minlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan.[20]

Xorijiy mamlakatlarning protsessual qonunchiligidagi sudga qadar ish yurituvining xususan tergovga qadar tekshiruv yoki jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan oldin o‘tkazilishiga ruxsat berilgan tergov harakatlari qatorida eksgumatsiya, guvohlantirish, qiyosiy tekshirishlar uchun namunalar olish (Rossiya Federatsiyasi[13], Xitoy[8]), tergovga qadar tekshiruv davrida ushlab turishning o‘ziga xos muddatlari, xususan 48 soat, harbiy holat e’lon qilinganida 30 sutkaga qadar ushbu muddat uzaytirilishi mumkinligi (Rossiya[13], Qozog‘iston[18], Xitoy[8], Germaniya [5], Gruziya[6]) kabi qoidalar mustahkamlangan.

Bundan tashqari, tergovga qadar tekshiruv davrida shaxslarni protsessga jalb etishning

preventiv choralar xorijiy mamlakatlar qonunchiligida mavjudligiga va bizning milliy qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliqlar ularda bartaraf etilganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, Fransiya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Belarus Respublikalari jinoyat protsesual qonunchiligida shaxsni sudga qadar ish yurituviga kelishini ta’minlashga qaratilgan “Hozir bo‘lish majburiyati” ko‘rinishidagi majburlov chorasi mavjud.

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv bo‘yicha amaliyotdagi muammolarda va xorijiy davlatlarning protsessual qonunchiligidagi tajribalaridan kelib chiqib quyidagilarni taklif etamiz:

Harbiy xizmatchilarning jinoiy qilmishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda hozirgi kunda uchrayotgan amaliyotdagi va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi muammolar tahlilidan va xorijiy davlatlarning protsessual qonunchiligidagi tajribalaridan kelib chiqib tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishning protsessual tartibini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. JKning 238-moddasining birinchi qismini quyidagi tahrirda bayon etish.

“(birinchi qismi) Yolg‘on guvohlik berish, ya’ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish, dastlabki tergov chog‘ida yoki sudda guvohning yoki jabrlanuvchining bila turib yolg‘on ko‘rsatuv berishi yoxud ekspertning bila turib yolg‘on xulosa berishi, xuddi shuningdek tarjimonning bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto‘g‘ri tarjima qilishi”

2. JPKning 47-modda quyidagi tahrirda bayon etish.

“47-modda. Gumon qilinuvchi

Gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor bo‘lsa-da, bu ma’lumotlar uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun yetarli bo‘lmagan shaxsdir.

Shaxs:

1) o‘ziga nisbatan tergovga qadar tekshiruv boshlangan;

2) jinoyat sodir etishda gumon qilinib, ushbu Kodeksning 221-moddasida belgilangan tartibida ushlangan;

3) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan jinoyat ishida gumon qilinuvchi tariqasida ishtirok etish uchun jalb qilish to‘g‘risida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab gumon qilinuvchi deb hisoblanadi”;

3. JPKning 48-moddasiga quyidagi tahrirda o‘zgartish kiritish.

(birinchi qism) Gumon qilinuvchi: o‘zining nimada gumon qilinayotganligini bilish; jinoyat protsessining har qanday bosqichida o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish, ushlab turilganligi va turgan joyi to‘g‘risida advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo‘ng‘iroq qilish yoxud xabar berish;

(ikkinchi qism) tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish; yarashuv to‘g‘risidagi, amnistiya aktini qo‘llash haqidagi ishlar bo‘yicha sud majlislarida ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish huquqiga ega.

Gumonqilinuvchi:tergovgaqadartekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi, tergovga qadar tekshiruvda, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirok etishdan bosh tortmasligi; haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sqinlik qilmasligi; o‘ziga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasidan kelib chiqadigan talablarni bajarishi; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish to‘g‘risidagi hamda surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning ekspertiza o‘tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to‘g‘risidagi qarorlari va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa protsessual qarorlar ijro etilishiga to‘sqinlik qilmasligi; ishni tergov qilishda tartibga rioya etishi shart.

4. JPKning 329-moddasini quyidagi tahrirdagi to‘rtinchi va beshinchi qismlar bilan to‘ldirish taklif etiladi.

“Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar o‘zining vakolati doirasiga kirmaydigan ushbu kodeksning 391-moddasida belgilangan boshqa tergovga qadar tekshiruv organiga yoki ularning mansabdor shaxslariga

kelib tushgan murojaatlar besh kunlik muddatdan kechiktirmay tegishli organlarga va mansabdor shaxslarga yuborilib, bu haqda murojaat etuvchiga yozma yoxud elektron shaklda xabar qilinadi. Bunda kelib tushgan elektron murojaat elektron shaklda yuborilishi mumkin.

Shuningdek, mazkur kodeksning 382-moddasi tartibida jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risidagi qaror bekor qilinib, qo‘shimcha tergovga qadar tekshiruv harakatlari o‘tkazish uchun tegishli organga yuborilganda, tergovga qadar tekshiruv muddati ish hujjatlari tegishli organga kelib tushgandan boshlab ko‘pi bilan 10 kun ichida ko‘rib chiqilishi shart.”

5. JPKga 329^1, 329^2, 329^3, 3294-moddalarini kiritish va uni quyidagi tahrirda bayon etish.

“329^1-modda. Tergovga qadar tekshiruvni to‘xtatish.

Tergovga qadar tekshiruvning muddati quyidagi asoslardan biriga muvofiq prokurorning ruxsatiga ko‘ra to‘xtatib turilishi mumkin:

1) o‘tkazish uchun bir oydan ko‘p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo‘lsa;

2) tayinlangan taftish bo‘yicha ushbu kodeksning 187^7-moddasida ruxsat berilgan muddatlar yetarli bo‘lmaganda yoki taftish muddati O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining yoki uning o‘rinbosarining roziligiga ko‘ra yoxud sudning ajrimi bilan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan o‘ttiz kalendar kunga uzaytirilganda;

3) jinoyat tarkibini aniqlash uchun ko‘rsatma (tushuntirish)lari daliliy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsning qayerda ekanligi noma’lum bo‘lsa yoki boshqa ish bo‘yicha qidiruvda bo‘lsa yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan, basharti uning tergovga qadar tekshiruvga ta’minlash imkoniyati bo‘lmasa;

4) ko‘rsatma (tushuntirish)lari olinishi zarur bo‘lgan shaxs tergovga qadar tekshiruvda ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli, lekin davolab bo‘ladigan kasallikka chalingan hollarda tergovga qadar tekshiruvning muddatlari to‘xtatiladi.

Agar tergovga qadar tekshiruv mazkur moddada belgilangan asoslarga ko‘ra to‘xtatilgan bo‘lsa, tergovga qadar tekshiruv organining mansabdor shaxsi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar orqali mazkur asoslardagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha choralarini ko‘rishi shart.”

“329^2-modda. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida o‘tkaziladigan tergov va protsessual harakatlar.

Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish davomida hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish va ushlangan shaxsni shaxsiy tintuv qilish, olib qo‘yish, ko‘zdan kechirish, taqdim qilingan narsalar va hujjatlarni olish, ekspertiza uchun namunalar olish, ekspertizalar tayinlash va o‘tkazish, yuzlashtirish, murdani eksgumatsiya qilish, guvohlantirish, taftish tayinlash, abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish haqida topshiriqlar berish tergov va protsessual harakatlari o‘tkazilishi mumkin.

Tergovga qadar tekshiruv vaqtida jinoyat faktini tasdiqlash uchun zarurat bo‘lgan hollarda boshqa tergov harakatlarini ham faqat sudning ruxsati bilan amalga oshirishga yo‘l qo‘yiladi. Bunda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi ushbu zaruratni asoslovchi ish hujjatlarini sudga taqdim etadi”

“329^3-modda. Tergovga qadar tekshiruv ishtirokchilari hamda ularning huquq va majburiyatlari.

Tergovga qadar tekshiruv davomida jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar asosida tergovga qadar tekshiruvga jalb qilingan shaxslar gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohning huquq va majburiyatlaridan foydalanadilar.

Tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi tergovga qadar tekshiruv ishtirokchilariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi shart.

Tergovga qadar tekshiruvga jalb qilingan shaxslar tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarorlari ijro etilishiga to‘sqinlik qilmasligi shart.

Jinoiy hodisadan jabr ko‘rgan shaxslar va shohidlar bila turib yolg‘on xabar, ko‘rsatma berganlik va ma’lum bo‘lgan holat, ma’lumotlarni yashirganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.”

“329^4-modda. Tushuntirishlar olish tartibi.

Tergovga qadar tekshiruv davomida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar to‘g‘risida xabardor bo‘lgan shaxslardan tushuntirishlar olinishi mumkin.

Shaxsdan tushuntirish olish yozma ravishda amalga oshiriladi va unda quyidagilar

ko‘rsatiladi:

1) tushuntirish olingan joy va sana, tushuntirish olish boshlangan va tugallangan vaqt;

2) tushuntirish olgan shaxsning lavozimi, unvoni, ismi, familiyasi va otasining ismi;

3) tushuntirish berayotgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, yashash joyi, ish joyi va uning shaxsi to‘g‘risidagi boshqa ma’lumotlar, aloqa vositalari;

4) tushuntirish berayotgan shaxs qaysi tilda tushuntirish berishi, tarjimon va himoyachi xizmatidan foydalanishga ehtiyoji borligi.

Tushuntirish olishdan avval shaxsga ushbu Kodeksning 51, 71-moddalarida belgilangan huquq va majburiyatlar tushuntiriladi va bu haqda tushuntirish xatida qayd etiladi.

Tushuntirish xatida ko‘rsatuvlar birinchi shaxs nomidan yozilib, unda sodir bo‘lgan voqea, hodisa to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Bunda tushuntirish berayotgan shaxsga aniqlashtiruvchi savollar berilishi mumkin. Savollar va ularga javoblar tushuntirish olish davomida paydo bo‘lgan ketma-ketlikda qayd etiladi.

Tushuntirish xati tushuntirish berayotgan shaxs, shuningdek tushuntirish olgan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi.

Tushuntirish berayotgan shaxs yolg‘on xabar berganlik uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirilib, tushuntirish xatiga bu haqda tegishli yozuv kiritiladi.

Tushuntirishlar olish ushbu Kodeksning –moddasida belgilangan tartibda videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilishi mumkin”

6. JPKni quyidagi mazmundagi 21[1]-bob bilan to‘ldirish.

21[1]-BOB. “ABONENTLAR YOKI ABONENT QURILMALARI O‘RTASIDAGI BOG‘LANISHLAR TO‘G‘RISIDA AXBOROT OLISH”

170[1]-modda. Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish uchun asoslar

Agar abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risidagi axborotlarda ish uchun ahamiyatga molik ma’lumotlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo‘lganda, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish to‘g‘risida iltimosnoma chiqarishga haqlidir.

170[2]-modda. Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish tartibi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish sudning ajrimiga binoan amalga oshiriladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish to‘g‘risida iltimosnoma chiqarilib, iltimosnoma va unga asos bo‘lgan hujjatlarni sudga, bu haqidagi xabarnomani prokurorga yuboradi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish to‘g‘risidagi iltimosnoma jinoyat sodir qilingan yoki surishtiruv yoxud dastlabki tergov yuritilayotgan joydagi jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudining, hududiy harbiy sudning sudyasi (tergov sudyasi) tomonidan mazkur sudlarning sudyasi bo‘lmaganida yoxud iltimosnomani ko‘rib chiqishda uning ishtirokini istisno etuvchi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi raisining ko‘rsatmasiga binoan boshqa tegishli sudning sudyasi tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish to‘g‘risidagi iltimosnoma kelib tushganidan so‘ng yopiq sud majlisida darhol ko‘rib chiqiladi.

Sud majlisida surishtiruvchi yoki tergovchi, agar lozim topsa prokuror ishtirok etadi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqish surishtiruvchi yoki tergovchi ma’ruzasi bilan boshlanadi, ma’ruzada ushbu tergov harakatning zarurligi asoslantirib beriladi. Shundan keyin sudya ajrim chiqarish uchun alohida xonaga kiradi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish to‘g‘risidagi iltimosnomani ko‘rib chiqib, kuyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

1) Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olishga ruxsat berish to‘g‘risida;

2) Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot

olishni rad etish to‘g‘risida.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olishni rad qilish to‘g‘risidagi sud ajrimi asoslantirilgan bo‘lishi kerak.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish to‘g‘risidagi sud ajrimi e’lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

Sud ajrimi ijro uchun maxsus vakolatli davlat organiga, bir nusxasi jinoyat ishi materiallariga biriktirish uchun surishtiruvchi yoki tergovchiga, nazorat uchun prokurorga yuboriladi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida axborot olish haqidagi ajrimda quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

1) ushbu tergov harakati o‘tkazish uchun asos bo‘lgan tergovga qadar tekshiruv materiali yoki jinoyat ishi raqami, tergov harakatini o‘tkazishning zarurligi haqida ma’lumot;

2) abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risidagi axborot talab qilinayotgan shaxsning telefon raqami;

3) so‘ralayotgan axborotning davri va vaqti;

4) ushbu harakatni o‘tkazish topshirilgan maxsus vakolatli davlat organining nomi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risidagi axborotlarni olish haqidagi qaror, ajrim maxsus vakolatli davlat organiga ijro uchun yuboriladi.

Abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risidagi axborotlarni taqdim qilish haqidagi ajrim qabul qilingan vaqtdan boshlab maxsus vakolatli davlat organi tomonidan uni darhol ijro qilish choralari ko‘riladi.

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan abonentlar yoki abonent qurilmalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risidagi axborotlar ushbu axborotlarni olish haqida ajrim chiqargan organga maxsus pochta aloqa xati orqali axborotlarni moddiy tashuvchilarga qayd etgan va muhrlangan holatda yoki himoyalangan aloqa kanalidan foydalangan holda elektron tarzda taqdim qilinadi.”

7. JPKni quyidagi mazmundagi 30^1-bob bilan to‘ldirish.

“30^1-BOB. HOZIR BO‘LISH MAJBURIYATI”

264^1-modda. Hozir bo‘lish majburiyatini qo‘llash asoslari

Ehtiyot chorasi yoki ta’minlovchi chorani qo‘llashga zarurat yoki yetarli asoslar bo‘lmagan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining uzrli sabablarsiz tergovga qadar tekshiruvdan, tergovdan yoki suddan bo‘yin tovlashini oldini olish maqsadida ulardan chaqiruvga binoan hozir bo‘lish, yashash joyi o‘zgargan taqdirda bu haqida darhol tergovga qadar tekshiruv organiga, tergov organiga yoki sudga xabar berish majburiyatini yuklash to‘g‘risida tilxat olinadi.

Chaqiruvga binoan hozir bo‘lish majburiyatini yuklash to‘g‘risidagi tilxat, shuningdek, jabrlanuvchi, qonuniy vakil, fuqaroviy javobgar, fuqaroviy da’vogar, guvohdan ham olinishi mumkin.

Chaqiruvga binoan hozir bo‘lish haqidagi tilxat olinayotganda ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko‘rsatilgan shaxslar ushbu majburiyatni bajarmaslik oqibatlari haqida ogohlantiriladi va bu haqida tilxatga tegishli yozuv kiritiladi.

264^2-modda. Chaqiruvga binoan hozir bo‘lish majburiyatini bajarmaslik oqibatlari

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi chaqiruvga binoan hozir bo‘lish majburiyatini uzrli sabablarsiz bajarmagan taqdirda ular majburiy tartibda keltirilib, ularga nisbatan ehtiyot chorasi yoki ta’minlovchi chora qo‘llaniladi, bunda ular qonunda belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Jabrlanuvchi, qonuniy vakil, fuqaroviy javobgar, fuqaroviy da’vogar, guvohlar chaqiruvga binoan hozir bo‘lish majburiyatini uzrli sabablarsiz bajarmagan taqdirda ular majburiy tartibda keltiriladi, bunda ular qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin.

Chaqiruvga binoan hozir bo‘lish majburiyati surishtiruv yoki dastlabki tergov jarayonida bajarilmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror bu haqida bayonnoma tuzadi hamda bayonnoma va tegishli hujjatlarni surishtiruv yoki dastlabki tergov harakatlari olib borilayotgan hududdagi ma’muriy ishni ko‘rib chiquvchi sudga yuboradi.

Agar chaqiruvga binoan hozir bo‘lish majburiyati sud muhokamasi davomida bajarilmagan hollarda majburiyatni bajarmagan shaxsni javobgarlikka tortish masalasi jinoyat ishi yurituvida bo‘lgan sudya tomonidan hal qilinadi.”

Uzrli sabablarga quyidagi holatlar kiradi:

shaxsni chaqiruvga binoan kelish imkoniyatidan mahrum etuvchi kasallikka chalinganligi;

yaqin qarindoshining vafoti;
tabiiy ofat;
chaqiruv xatini olmaganligi;
shaxsni belgilangan vaqtda hozir bo‘lish imkoniyatidan mahrum etuvchi boshqa holatlar.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslar chaqiruvga binoan hozir bo‘lishiga to‘sqinlik qiluvchi uzrli sabablar mavjud ekanligi haqida chaqirtirgan organni xabardor etishi lozim, birinchi qism to‘rtinchi bandi bundan mustasno.”

Xulosa qilib aytganda, jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma’lumotlar kelib tushganda o‘tkaziladigan tergovga qadar tekshiruv davrida shaxs malakali yuridik yordam olishi va advokat yordamidan foydalanishini ta’minlash, tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilayotgan shaxsning jinoyat protsessi ishtirokchisi sifatidagi huquqiy maqomini belgilash hamda ushbu shaxsning huquq va majburiyatlarini Jinoyat-protsessual kodeksi normasida aks ettirish Yangi Konstitutsiyaviy o‘zgarishlar o‘z navbatida milliy qonunchilik tizimida o‘z ifodasini topishiga, jumladan, tergovga qadar tekshiruvni o‘tkazish asoslari va tartibini belgilovchi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi va ichki idoraviy hujjatlarda harbiy xizmatchilarga nisbatan tergovga qadar tekshiruv davrida ularning huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПОРЯДКА ПРОВЕДЕНИЯ ДОСЛЕДСТВЕННОЙ ПРОВЕРКИ ПО ПРЕСТУПНЫМ ДЕЯНИЯМ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В данной статье освещены понятия преступного деяния, преступного деяния военнослужащих, доследственная проверка, доследственная проверка по преступным деяниям военнослужащих и проанализированы проблемы, возникающие в настоящее время в практике и уголовно-процессуальном законодательстве при проведении доследственной проверки по преступным деяниям военнослужащих, а также даны предложения по совершенствованию процессуального порядка проведения доследственной проверки исходя из опыта процессуального законодательства зарубежных стран.

Ключевые слова: Преступное деяние, преступное деяние военнослужащих, доследственная проверка, доследственная проверка по преступному деянию военнослужащих, процессуальные сроки, следственные действия, получение объяснений, обязанность присутствования.

ISSUES OF IMPROVING THE PROCEDURAL PROCEDURE FOR CONDUCTING PRE-INVESTIGATIONS INTO CRIMINAL ACTS OF MILITARY PERSONNEL

Abstract. This article describes the concepts of criminal offence, criminal offence of military personnel, pre-trial investigation, pre-trial investigation of criminal offenses of military personnel and analyzes the current problems in practice and in the criminal-procedural legislation in the conduct of pre-trial investigation of criminal offenses of military personnel and, based on the experience in the procedural legislation of foreign countries, makes proposals for improving the procedural procedure of pre-trial investigation.

Keywords: criminal offence, criminal offence of military personnel, pre-trial investigation, pre-trial investigation of criminal offenses of military personnel, procedural time limits, investigative actions, obtaining explanations, obligation to appear

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” // www.lex.uz.

5. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии в редакции от 13 ноября 1998 г. по состоянию на 15 мая 2003 г.

6. Уголовно-процессуальный кодекс Грузии. Принят от 09.10.2009 г.№ 1772-IIс.

7. Уголовно-процессуальный кодекс Эстонии. Принят 12.02.2003 RT I 2003, 27, 166 Вступил в законную силу 01.07.2004.

8. Уголовно-процессуальный кодекс КНР, Принят на 2-й сессии Всекитайского собрания народных представителей пятого созыва 1 июля 1979 года.

9. Япония жиноят-процессуал кодекси (Кэйдзи-сошё-хо). Қонун № 131. 10.07.1948 й.

10. Уголовно-процессуальный акт Южной Корее (Хёнса-сосон-беоп) Закон № 341 от 23 сентября 1954 г.

11. Уголовно-процессуальное право ОАЭ. Основные положения статья 20-21.

12. Уголовно-процессуальное право - Саудовская Аравия Уголовно-процессуальный закон Королевский указ № (M / 39) 28 Раджаба 1422 г. – 16 октября 2001 г. Уголовно-процессуальный закон Королевства Саудовская Аравия / науч. ред. Н.Г. Стойко; перевод с английского П.А. Гусеновой. – СПб.: Изд-во «Юридический центр». 2016. – 168 с.

13. Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации от 18 декабря 2001 г. N 174-ФЗ.

14. Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики (утвержден Законом Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года № 907-IQ) (с изменениями и дополнениями по состоянию на 15.04.2022 г.)

15. Уголовный процессуальный кодекс Украины от 13 апреля 2012 года № 4651-VI (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.05.2022 г.)

16. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 19.07.2022 г.

17. Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 129. (Введен в действие Законом Кыргызской Республики от 28 октября 2021 года № 126)

18. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.09.2022 г.)

19. Уголовный кодекс Туркменистана от 12 июня 1997 года № 222-И (с изменениями и дополнениями по состоянию на 13.11.2021 г.)

20. Code of Virginia. Article 4. National Guard Courts-Martial. § 44-42. Kinds of courts-martial; how constituted and powers.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARIDA HARBIY INTIZOMNI MUSTAHKAMLASH VA HARBIY XIZMATCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Rizoyev Feruz Furqat o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy intizomni mustahkamlash va harbiy xizmatchilar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlaridan biri – harbiy ombudsman instituti faoliyati rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ombudsman, muhtasib, demokratik nazorat, nazorat, Qurolli Kuchlar, harbiy xizmatchi, parlament, harbiy obyektlar, sir.

So‘nggi yillarda yurtimizda Qurolli Kuchlarni yanada isloh qilish, harbiy sohadagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning huquqlari himoyasini mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, **“2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”ning [1]** 90-maqsadida “Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish” belgilangan hamda bu borada “Mamlakat harbiy xavfsizligini ta’minlash va mudofaa salohiyatini mustahkamlash borasidagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish” eng ustuvor vazifa ekanligi ta’kidlangan

Yuqorida belgilangan strategik vazifalarga erishish uchun eng avvalo Qurolli Kuchlarimizda mustahkam harbiy intizomni ta’minlash, harbiy xizmatchilarning huquqlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini yaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlashning yangicha mexanizmi sifatida Qurolli Kuchlar Ombudsmani institutini joriy qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bunday institut faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali Qurolli Kuchlarimizda inson huquqlari va himoyasi sohasidagi munosabatlarni mustahkamlash, uning faoliyati ustidan nazoratning zamonaviy usullarini qo‘llash, huquqbuzarliklar va ularning oldini olish, harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini yanada mustahkamlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ombudsman institutining kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “ombudsman” so‘zi - bugun rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda “inson huquqlarini himoya qiluvchi” sifatida tushuniladi. Bu so‘z shved tilidan olingan bo‘lib “vakil” degan ma’noni anglatadi. U eng avval shved qiroli huzurida faoliyat yuritgan. Keyinchalik parlament shakllangandan so‘ng 1809-yildan parlament huzuriga ko‘chgan [2].

Agar tarixiy manbalarni kuzatadigan bo‘lsak, shved qiroli ushbu tajribani islom davlatlarda faoliyat yuritgan “muhtasib”lar ishidan o‘rganganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Muhtasiblar islom dini va shariat ahkomlari asosida faoliyat yuritib, nazorat funksiyasini bajarishgan.

Inson huquqi bo‘yicha milliy institutlar dastavval Arab xalifaligida tashkil etilganligi manbalarda ko‘plab ta’kidlanadi. Umar ibn Xattob xalifaligida muhtasib mansabi ta’sis etilgan bo‘lib, uning vazifasi davlat mansabdorlari faoliyati ustidan fuqarolarning ariza va shikoyatlarini qabul qilish va ko‘rib chiqishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek o‘sha davrda Turkiyada ham “Qadi al Qudrat” mansabi tashkil etilgan va uning funksiyasi amaldorlarning xatti-harakati ustidan fuqarolardan kelib tushgan shikoyatlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish bo‘lgan [3].

XVII asrlarda shved qirolligiga hujum uyushtirilganda qirol hozirgi Turkiya hududlariga qochib o‘tishga majbur bo‘ladi. Qochqinda turk sultoni himoyasida Shvetsiya qiroli Karl XII mamlakatdagi fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi, o‘rnatilgan tartiblarni nazorat qiluvchi insonlarni kuzatadi. Keyinchalik o‘z vataniga qaytib, mana shu tizimni o‘z davlatida “Ombudsman” nomi bilan (1713-yil) [4] joriy

etadi va bu Yevropada ham ommalashadi.

“nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan shaxsan kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirilayotgan shaxsning shubhali o‘zini tutishi va xatti-harakatlari belgilari, balkim uning jinoiy niyatlaridan dalolat beruvchi yoki unda yo‘lovchilar va boshqa shaxslarga avtotransport vositalarida qo‘l yuki va bagaj shaklida tashish taqiqlangan xavfli moddalar va buyumlar bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida shubha tug‘diruvchi belgilar aniqlangan hollarda amalga oshiriladi” *(11-band shaxslarni tanlab shaxsiy ko‘zdan kechirish buning uchun maxsus jihozlangan xonalarda, 4-xatboshi);*

“zaruriyat bo‘lganda, noqonuniy aralashish harakatini yoki boshqa jinoiy harakatlarni sodir etish niyatidagi shaxslar

uchun xarakterli bo‘lgan bir qancha o‘zini tutish belgilari bo‘yicha potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida nazoratdan o‘tkazilayotganlarni psixologik so‘rov o‘tkazish” *(13-band Nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar, 3-xatboshi)* kabilar belgilab o‘tilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2012 -yil 25-dekabrdagi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunida[3]: “Tezkor kuzatuv — tezkor-qidiruv faoliyatining vazifalarini hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni olish maqsadida shaxslarning harakatlarini, hodisalarni va jarayonlarni bevosita yoki bilvosita (texnik vositalardan foydalangan holda) nooshkora kuzatish va qayd etishdan iborat bo‘lgan tadbir” *(14-modda. Tezkor-qidiruv tadbirlarining turlari)* ko‘rsatib o‘tilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 20 yanvardagi O‘RQ-400-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi”da bojxona nazoratining shakllari keltirib o‘tilgan bo‘lib, unga ko‘ra[4]: “bojxona nazoratining shakllariga og‘zaki so‘rov, bojxona ko‘zdan kechiruvi, shaxsiy ko‘rik, bojxona kuzatuvi” kabi chora-tadbirlar kiritilgan *(188-modda. Bojxona nazoratining shakllari)*.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida aviatsiya xavfsizligi ko‘zdan kechiruvini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 183-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasida aviatsiya xavfsizligi ko‘zdan kechiruvini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”da[5]: “Yo‘lovchilarni aviatsiya xavfsizligi bo‘yicha shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi hollarda maxsus jihozlangan xonalarda majburiydir:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari va fuqaro aviatsiyasi xodimlarining shaxsiy kuzatuvi natijasida yo‘lovchining shubhali xatti-harakati va harakatlarining alomatlarini aniqlash, ehtimol uning jinoiy niyatidan dalolat beruvchi yoki samolyotda tashish taqiqlangan buyumlar va moddalar mavjudligiga shubha uyg‘otishi” *(56-band, 4-xatboshi)* – deb ko‘rsatib o‘tilgan.

6. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi “Transport to‘g‘risida”gi Qonunida[6]:

“yo‘lovchilarning va boshqa shaxslarning hayoti hamda sog‘lig‘ini muhofaza qilish, tashishlar xavfsizligini ta’minlash maqsadida vakolatli organlar vokzalga, aeroportga, metropolitenga va avtostansiyaga kirish joyida transport vositasini, bagajni, yuk bagajini va yukni ko‘zdan kechirishdan hamda yo‘lovchilarni va boshqa shaxslarni shaxsan ko‘zdan kechirishdan o‘tkazishi mumkin. Yo‘lovchilar va boshqa shaxslar ko‘zdan kechirishdan o‘tishni rad etgan taqdirda vokzalga, aerovokzalga, aeroportga, metropolitenga va avtostansiyaga kirish taqiqlanadi.

Transport vositasini, bagajni, yuk bagajini va yukni ko‘zdan kechirishni, yo‘lovchilarni hamda boshqa shaxslarni shaxsan ko‘zdan kechirishni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan vakolatli organlarning ro‘yxati, ko‘zdan kechirishni o‘tkazish tartibi, shuningdek vokzallarda, aerovokzallarda, avtostansiyalarda, aeroportlarda va metropolitenda yo‘lovchilarning hamda boshqa shaxslarning bo‘lishi qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” (35-modda. Transport infratuzilmasi obyektlarida ko‘zdan kechirish) – deb qayd etib o‘tilgan.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasining 2022-yil 28-yanvaridagi “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatining ilmiy asoslarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4 qq, 4, 5 qq, 1 qq, 2/2-son qarorida:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” maqsadli innovatsion ilmiy tadqiqot loyihasi bajarilishi ko‘rsatib o‘tilgan (6-modda (Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi muammolarni hal qilish yo‘nalishida ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli va innovatsion loyihalar shakllantirilishi va amalga oshirilishi), b) bandi, 2-xatboshi).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2023 yillarda bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da[7]:

2022-yil iyul oyiga qadar “Xalqaro aeroportlarning uchib ketish yo‘nalishida “masofaviy bojxona nazorati” (maxsus ajratilgan joylarda vizual kuzatuvni amalga oshirish orqali) tizimini joriy etish. Bunda:

1. Yo‘lovchilar va ularning yuklari to‘g‘risida

dastlabki ma’lumotlar (API/PNR) hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ma’lumotlar bazasi asosida xavflarni baholash orqali davlat nazoratini tashkil etishni nazarda tutuvchi Idoralararo xavflarni boshqarish axborot platformasini yaratish;

3. Barcha xalqaro aeroportlarni yo‘lovchilarning yuzini aniqlash tizimi (videokameralar, videoserverlar), kommunikatsiya qurilmalari, 3D rentgen tomograflari, yo‘lovchilar va ularning yuklaridagi shtrix kodlarni avtomatlashtirilgan tartibda o‘qish qurilmalari bilan jihozlash va monitoring markazlarini yaratish” chora-tadbirlarini amalga oshirish belgilangan (35-band).

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 445-son qarori bilan tasdiqlangan “Jazoni ijro etish muassasalarini 2022 — 2024 yillar davomida bosqichma-bosqich texnik vositalar bilan jihozlash va jazoni ijro etish tizimi faoliyatini raqamlashtirish dasturi”da [8]:

“mahkumlarni qayta tarbiyalash taktikasini to‘g‘ri belgilash va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish maqsadida har bir mahkumning xulq-atvori va shaxsi haqidagi ma’lumotlar elektron bazasini yuritish va uning asosida mahkumlarni taqsimlash jarayonini to‘liq raqamlashtirish” belgilanib, ushbu vazifa ijrosi 2022 yil dekabriga qadar Ichki ishlar vazirligi budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan (2-band).

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-noyabrdagi “Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 630-son qarori[9]:

“idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchi va xizmatchilari tomonidan shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish, ashyolar, qo‘l yuki, bagaj va transport vositalarini ko‘zdan kechirish qoidalarini belgilash” ko‘rsatib o‘tilgan (1-band 3-xatboshi (“Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga muvofiq:).

Mazkur qaror bilan tasdiqlangan “Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari to‘g‘risida namunaviy nizom”da:

“qo‘riqlanadigan obyektlar hududida jamoat tartibini ta’minlash, huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga chek qo‘yish” ko‘rsatib o‘tilgan (2-band. Quyidagilar qo‘riqlash bo‘linmalarining vazifalari hisoblanadi) 4-xatboshi).

Shuningdek, ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari ishchilarining va xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda:

“Kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalaniladi” – deb qayd qilingan (7-band).

Shu bilan birga, qaror bilan tasdiqlangan “Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchi va xizmatchilari tomonidan shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish, ashyolar, qo‘l yuki, bagaj va transport vositalarini ko‘zdan kechirish qoidalari”da:

“Ushbu Qoidalar Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalari ishchi va xizmatchilari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektning nazorat-o‘tkazish joyida obyekt xodimlari va tashrif buyuruvchilarni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish hamda ashyolar, qo‘l yuki, bagaj va transport vositalarini ko‘zdan kechirish tartibini belgilaydi” (1-band);

“Bo‘linmalar obyektda shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish va ko‘zdan kechirish huquqiga ega bo‘lgan vakolatli tuzilma hisoblanadi” *(2-band);*

“ko‘zdan kechirish — obyekt xodimlariga va tashrif buyuruvchilarga obyektning nazorat-o‘tkazish joyida ashyolar, qo‘l yuki va bagaj shaklida olib kirish (chiqish) taqiqlangan, noqonuniy aralashish harakatini sodir etish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan xavfli moddalar va buyumlarni aniqlashga mo‘ljallangan tadbirlar kompleksi” ko‘rsatib o‘tilgan (3-band ushbu Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi, 2-xatboshi).

“shaxsiy ko‘rik — obyektning nazorat-o‘tkazish joyida bo‘lgan jismoniy shaxsga nisbatan o‘tkaziladigan tadbirlar kompleksi” qayd qilingan *(3-band, 7-xatboshi).*

“zaruratga ko‘ra, noqonuniy aralashish harakatini yoki boshqa jinoiy harakatlarni sodir etish niyatidagi obyekt xodimlari hamda tashrif buyuruvchilar uchun xos bo‘lgan bir qancha o‘zini tutish belgilari bo‘yicha potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida ko‘zdan kechirilayotganlarni psixologik so‘rab chiqish” kabilar belgilangan (18-band 4-xatboshi).

11. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar

organlari faoliyatini psixologik ta’minlashning sifat jihatdan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida” 185-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari faoliyatini psixologik ta’minlash tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma”da:

“profayler (poligrafologning taklifiga asosan tekshiruv davomida, o‘rganiluvchining xatti-harakatlarini kuzatish uchun);” deb belgilangan ing (77-band. Psixofiziologik tekshiruv o‘tkazilayotgan xonada o‘rganiluvchi va poligrafologdan tashqari ishtirok etishi mumkin bo‘lgan mutaxassislar).

12. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2023-yil 17-apreldagi “Ekspert-kriminalistika bo‘linmalari ish faoliyatini tashkil etish va sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi 200-son buyrug‘ida:

- “sohaviy xizmatlar xodimlari uchun avtomatlashtirilgan tizimlar imkoniyatlaridan foydalangan holda shaxsning tashqi yuz qiyofasi elementlari va daktiloskopik hisob bo‘yicha shaxsni identifikatsiya qilish mavzularida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish”;
- shaxsni identifikatsiya qilish bo‘yicha avtomatlashtirilgan tizim apparat-dasturiy majmualarining texnik-texnologik talablarga muvofiq ishlashini ta’minlash;
- shaxsni identifikatsiya qilish hamda IIV boshqa xizmatlari shaxsiy tarkibi bilan shaxsni tashqi qiyofa xususiyatlari va daktiloskopik hisob bo‘yicha identifikatsiya qilishda shaxsni avtomatlashtirilgan identifikatsiya qilish bo‘yicha tizim imkoniyatlari mavzusida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish” kabilar ko‘rsatib o‘tilgan *(8-band. Raqamli axborot-qidiruv tizimlari markazi, biometrik identifikatsiya hamda shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash bo‘limlarining asosiy vazifalari va funksiyalari)*.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-aprelidagi “Aerovokzal, temir yo‘l va avtobus vokzallarida xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 159-son qarori bilan tasdiqlangan “Temir yo‘l vokzallarida (stansiyalarida) yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning qo‘l yuki va bagajini ko‘zdan kechirish, ularning temir yo‘l vokzallarida (stansiyalarida) bo‘lish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda[10]:

“**ko‘zdan kechirish** — maxsus texnik vositalarni qo‘llagan holda, tashrif buyuruvchilar hamda yo‘lovchilar uchun yo‘lovchi tashish poyezdlarida qo‘l yuki va bagaj shaklida tashish taqiqlangan, noqonuniy aralashish harakatini sodir etish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan xavfli moddalar va buyumlarni aniqlashga qaratilgan tadbirlar majmuasi” (2-band);

“ko‘zdan kechirilgan va nazorat hududiga qo‘yilgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning ko‘zdan kechirishdan o‘tmagan uchinchi shaxslar bilan muomala qilishini cheklash (4-band (ko‘zdan kechirishning umumiy qoidalari quyidagilarni nazarda tutadi), g) xatboshi);

“yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni verifikatsiya qilish imkonini beradigan uskunalardan foydalanish” (6-band (ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar), b) xatboshi);

“noqonuniy aralashish harakatini yoki boshqa jinoiy harakatlarni sodir etish niyatidagi shaxslarga xos bo‘lgan bir qancha o‘zini tutish belgilari bo‘yicha potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilar bilan psixologik so‘rov shaklida (qisqa savollar yordamida) suhbat o‘tkazish” (6-band ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar, g) xatboshi);

“ko‘zdan kechirilayotgan shaxslarga nisbatan hushyor, e’tiborli va iltifotli munosabatda bo‘lishga hamda ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlarga yo‘l qo‘ymaslikka” (7-band ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar, b) xatboshi);

“...ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning kiyimidagi mavjud metall buyumlarni (portsigar, kalitlar, folgali pachkalardagi sigaretlar, tangalar va shu kabilarni) belgilangan idishga qo‘yish va yo‘lovchilarning to‘planib qolishiga yo‘l qo‘ymay, ularga navbati bilan turg‘un metall detektor orqali o‘tish taklif etiladi, metall buyumlar mavjudligi to‘g‘risida signal tushgan taqdirda, qo‘lda ishlatiladigan metall detektor qo‘llaniladi, u bo‘lmaganda esa — belgilangan tartibda shaxsiy ko‘rikdan o‘tkaziladi” (12-bandi shaxslarni va ularning qo‘l yuki, bagajini ko‘zdan kechirish quyidagi ketma-ketlikda o‘tkaziladi, b) xatboshi);

“... qidiruvdagi shaxslar deb gumon qilingan

yoki ko‘zdan kechirishdan o‘tkazish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslarni aniqlik kiritish maqsadida pasportga oid ma’lumotlari ham tekshiriladi va shaxsiy ko‘zdan kechirish ko‘rigidan o‘tkaziladi” (12-bandi shaxslarni va ularning qo‘l yuki, bagajini ko‘zdan kechirish quyidagi ketma-ketlikda o‘tkaziladi, d) xatboshi);

“ko‘zdan kechirish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan shaxsan kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning o‘zini shubhali tutishi va xatti-harakatlari belgilari, uning g‘arazli niyatlaridan dalolat beruvchi yoki yo‘lovchi tashish poyezdlarida yo‘lovchilar tomonidan qo‘l yuki va bagaj shaklida tashishi taqiqlangan xavfli moddalar va buyumlar bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida shubha tug‘diruvchi belgilar aniqlanganda” (23-band (qidiruvdagi shaxslar deb gumon qilingan yoki ko‘zdan kechirish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslar maxsus jihozlangan xonalarda ikkita xolis ishtirokida quyidagi hollarda shaxsiy ko‘zdan kechiriladi:) g) xatboshi).

“Avtovokzallarda (avtostansiyalarda) yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilarning qo‘l yuki va bagajini ko‘zdan kechirish, ularning avtovokzallarda (avtostansiyalarda) bo‘lish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda:

“qidiruvdagi shaxslarni aniqlash va ushlash maqsadida nazoratdan o‘tkazilayotganlarning pasportga oid ma’lumotlarini tanlab tekshirish, shuningdek, shubhali shaxslarni shaxsan nazoratdan o‘tkazish” (7-band nazoratdan o‘tkazishning umumiy qoidalari quyidagilarni nazarda tutadi:) 7-xatboshi);

“noqonuniy aralashish harakatini sodir etish niyatidagi shaxslarga xos bo‘lgan bir qancha o‘zini tutish belgilari bo‘yicha potensial xavfli shaxslarni aniqlash maqsadida ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchilar va tashrif buyuruvchilar bilan so‘rov shaklida (qisqa psixologik savollar yordamida) suhbat o‘tkazish” (12-band nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar xizmatni o‘tash vaqtida quyidagi huquqlarga ega: 5-xatboshi);

“nazoratdan o‘tkazish vakolatiga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan shaxsan kuzatish yo‘li bilan ko‘zdan kechirilayotgan yo‘lovchi va tashrif buyuruvchilarning o‘zini shubhali tutishi va xatti-harakatlari belgilari, uning g‘arazli niyatlaridan dalolat beruvchi yoki yo‘lovchi tashish avtobuslarida yo‘lovchilar qo‘l yuki va bagaj shaklida tashishi taqiqlangan xavfli moddalar va buyumlar bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida shubha tug‘diruvchi belgilar aniqlanganda” (23-band (qidiruvdagi shaxslarga gumon qilingan yoki nazoratdan o‘tish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslarni shaxsiy ko‘zdan kechirish, maxsus jihozlangan xonalarda ikkita xolis kishi ishtirokida quyidagi hollarda amalga oshiriladi:) 4-xatboshi) kabilar ko‘rsatib o‘tilgan.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi “2022 — 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-son qarori bilan tasdiqlangan “2022 — 2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da[11]:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” deb nomlangan maqsadli innovatsion ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshirish belgilangan (8-band).

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining 2023-yil 23-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo‘riqlash bosh boshqarmasiga qo‘riqlash uchun topshirilgan obyektlarni qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlash talablari, tartibi hamda shartlari to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida”gi 3453-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Qo‘riqlash bosh boshqarmasiga qo‘riqlash uchun topshirilgan obyektlarni qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlash talablari, tartibi hamda shartlari to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”da[12]:

“obyektga tashrif buyuruvchilar va uning xodimlarini ko‘zdan kechirish, shuningdek qo‘riqlash naryadlari xizmat o‘tashi uchun xona bo‘lishi” (7-band (Obyektning nazorat-o‘tkazish joyini jihozlashda quyidagi talab va shartlarga rioya qilinishi zarur:) 1-xatboshi).

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 10-oktabrdagi “Metropolitenda yo‘lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo‘lish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 535-son qarori bilan tasdiqlangan “Metropolitenda yo‘lovchilar hamda boshqa shaxslarning bo‘lishi qoidalari”da [13]:

“...qidiruvdagi shaxslar deb gumon qilingan yoki ko‘zdan kechirish jarayonida o‘zini shubhali tutayotgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda shaxsiy ko‘zdan kechirilishi mumkin”

(8-band 2-xatboshi).

17. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida:

“... Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin” (21-modda.) kabi norma belgilangan.

Qayd etilgan qonunchilik hujjatlarining ilmiy tahlili asosida jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llashni huquqiy tartibga solish borasida quyidagi tizimli kamchilik va muammolar borligi aniqlandi:

1) Profayling texnologiyasi tushunchasi huquqiy ta’rifi ishlab chiqilmagan;

2) Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llash mexanizmlari ishlab chiqilmagan;

3) Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida profayling texnologiyasini qo‘llash vazifalarini amalga oshiruvchi “mutaxassis – profayler” kadrlarni tayyorlash tizimi joriy etilmagan;

4) Profayler kadrlarning huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, vazifa va funksiyalari, hisobdorligi va javobgarligi ishlab chiqilmagan;

5) jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashga jalb etilayotgan xodimlarni huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash, ularning xatti-harakatlarini tahlil qilish va aniqlash usullariga o‘rgatish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan;

6) tahdidni baholash va konseptual tahlil metodikasi shakllantirilmagan (joriy vaziyat va atrof-muhit sharoitida xatti-harakatlarni baholash, kuzatilgan xatti-harakatlarni huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hatti-harakatlari bilan taqqoslash);

7) jamoat xavfsizligini ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llashga jamoatchilikni keng jalb qilish masalalari yetarlicha hal etilmagan (jamoatchilikning xabardorligini oshirish, shubhali xatti-harakatlar belgilari to‘g‘risida targ‘ibotlarni o‘tkazish, fuqarolar shubhali harakatlar to‘g‘risida xabar berishlari mumkin bo‘lgan fikr-mulohaza yuborish axborot kanallarini yaratish, shubhali faoliyat haqida tez va anonim tarzda xabar berish imkonini beruvchi mobil ilovalarni ishlab chiqish);

8) jamoat xavfsizligini ta’minlashda profayling texnologiyasini qo‘llashda milliy idoralararo hamda xalqaro hamkorlik yetarlicha tartibga solinmagan va yo‘lga qo‘yilmagan (harakatlarni muvofiqlashtirish, axborot almashish, qo‘shma tadbirlar o‘tkazish, turli huquqni muhofaza qilish organlari va xavfsizlik xizmatlari o‘rtasida ma’lumot almashish uchun platformalar yaratish, favqulodda vaziyatlarda o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun qo‘shma operatsiyalar va mashqlarni bajarish, xalqaro tarmoqlar va tajriba almashish va eng yaxshi amaliyotlarni keng tatbiq etish, transchegaraviy hamkorlikning amalga oshirish, transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish uchun boshqa mamlakatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish).

Xulosa qilib aytganda, “Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida foydalanish uchun innovatsion profayling texnologiyasini ishlab chiqish” amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasini bajarish davomida yuqorida qayd etilgan tizimli kamchilik va muammolarning ilmiy-amaliy asoslangan kompleks yechimlar ishlab chiqiladi.

Аннатация. Данная статья выполнена в рамках практического грантового проекта №ALM-202310202738 «Разработка инновационной технологии профайлинга для использования в деятельности по обеспечению общественной безопасности», в рамках которого были научно исследованы национальные законодательные документы, регулирующие использование технологии профайлинга в деятельности по обеспечению общественной безопасности. Особое внимание направлено на выявление системных недостатков и проблем правового регулирования использования технологии профайлинга в деятельности органов общественной безопасности.

Ключевые слова: Проверка личности, подозрительные лица, потенциально опасные лица, действие лиц, таможенный контроль, личное наблюдение, технология профайлинга, профайлеры, подозрительные признаки, Национальная гвардия.

Abstract. This article was written within the framework of the practical grant project No. ALM-202310202738 “Development of innovative profiling technology for use in public safety activities”, within the framework of which national legislative documents regulating the use of profiling technology in public safety activities were scientifically studied. Particular attention is paid to identifying systemic shortcomings and problems of legal regulation of the use of profiling technology in the activities of public security agencies.

Key words: Identity verification, suspicious persons, potentially dangerous persons, actions of persons, customs control, personal observation, profiling technology, profilers, suspicious signs, National Guard

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. https://old.lex.uz/docs/97664

2. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ва Ўзбекистон автомобиль ва дарё транспорти агентлигининг 2012 йил 23 апрелдаги “Автовокзаллар ва автостанциялар ҳудудига йўловчилар ва бошқа шахсларни киритиш тартиби тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 13/2-сон қарори https://lex.uz/ru/docs/2022632?otherlang=1

3. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрдаги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. https://www.lex.uz/acts/2107763

4. Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси https://www.lex.uz/acts/ 2876354.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 2 июндаги “Ўзбекистон Республикаси фуқаро авиациясида авиация хавфсизлиги кўздан кечирувини ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 183-сон қарори https://lex.uz/docs/2971699

6. 2021 йил 9 августдаги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни “Транспорт тўғрисида”ги. https://lex.uz/docs/5563039

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 апрелдаги “Божхона маъмуриятчилигини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-122-сон Фармони. https://lex.uz/docs/5998615.

8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 15 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти фаолиятини янада самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 445-сон қарори.https://lex.uz/docs/6155666

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 1 ноябрдаги “Идоравий ҳарбийлаштирилган қўриқлаш ҳамда идоравий қоровуллик бўлинмалари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 630-сон қарори. https://lex.uz/ru/docs/6266410

10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 17 апрелидаги “Аэровокзал, темир йўл ва автобус вокзалларида хизмат кўрсатиш сифатини яхшилашга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 159-сон қарори. https://lex.uz/ru/docs/6435331

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 23 мартдаги “2022 — 2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида жамоат хавфсизлигини таъминлаш тизимини ривожлантириш стратегиясини 2023 йилда амалга ошириш бўйича «йўл харитаси»ни тасдиқлаш тўғрисида”ги 121-сон қарори https://lex.uz/ru/docs/6411327

12. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси қўмондонининг 2023 йил 23 августдаги “Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясининг Қўриқлаш бош бошқармасига қўриқлаш учун топширилган объектларни қўриқлашнинг муҳандислик ва техник воситалари билан жиҳозлаш талаблари, тартиби ҳамда шартлари тўғрисидаги йўриқномани тасдиқлаш ҳақида”ги 3453-сонли буйруғи https://lex.uz/ru/docs/6579141

13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2023 йил 10 октябрдаги “Метрополитенда йўловчилар ҳамда бошқа шахсларнинг бўлиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 535-сон қарори. https://lex.uz/docs/6631523

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA IJTIMOIY TARMOQLARNI JAMOAT XAVFSIZLIGIGA SALBIY TA’SIRINI BAHOLASH MODELLARI

Sodiqov Mirjalol
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan globallashuv davrida axborot tahdidlarining internet va ommaviy axborot vositalari orqali jamoat xavfsizligiga ta’siri, shuningdek ushbu tahdidlarni baholashga ta’sir qiluvchi omillar va axborot tahdidlarini baholashning zamonaviy modellari siyosiy modellashtirish, sotsiologik so‘rov, statistik tahlil va umumlashtirish kabi tadqiqot usullarida o‘rganilgan bo‘lib, ular turli xil nazariyalar, yondashishlar va yo‘nalishlarga asoslangan holda axborot tahdidlarini salbiy ta’sirini baholash algoritmi va axborot tahdidlarini baholashning xususiy konseptual modeli tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, axborot tahdidi, axborot tahdidini baholash mezonlari, axborot tahdidlarini aniqlash.

XXI asr – globallashuv jarayonida jamiyatning axborotlashuvi kuchayib bormoqda. Bunday axborotlashgan jamiyatni o‘ziga xosligi shundan iboratki, o‘z ma’lumotlariga o‘zini ishontira oladigan odamlar qancha ko‘p bo‘lsa, ularning izdoshlari ko‘payadi, ya’ni guruh a’zolari qanchalik ko‘p bo‘lsa, ular shunchalik kuchli bo‘ladi. Ushbu jarayonlarda internet va ommaviy axborot vositalari jamiyat ongiga ta’sir qilishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Internetda chegaralar va cheklovlar mavjud emasligi sababli, axborot xavfsizligi masalasi faqat bir necha guruh, davlat, mintaqa, yoki qit’alar muammosi emas, global muammoga aylanmoqda. Raqamli ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi media makonining qayta konfiguratsiyasiga olib keldi, bu esa ma’lumotlar yetkazilishida o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o‘zining “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” nomli asarida ta’kidlashicha “Shubhasiz, ommaviy axborot vositalarining amaliy faoliyatida foydali tavsiyalar va takliflarni olish uchun ilmiy tahlil qilinishi mumkin bo‘lgan va kerak bo‘lgan yetarlicha katta miqdordagi materiallar to‘plangan. Media tarmoqlar faoliyati samarasini oshirish, ularni xalq bilan muloqotning ishonchli vositasiga aylantirish, zamonaviy axborot xizmatlari bozorini, sog‘lom raqobat muhitni shakllantirish singari dolzarb masalalar doimiy e’tiborimiz markazida bo‘lishi kerak” [1]. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, axborot urushi muammolari o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ko‘plab ilmiy izlanishlarga qaramay harbiy-siyosiy fanlar kontekstida faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar internet va ommaviy axborot vositalarining jamoat xavfsizligiga ta’sirini, uni baholashga ta’sir qiluvchi omillarni shuningdek, axborot tahdidlarini baholash modellarini yetarli darajada o‘rganilmaganligi bu muammoni qanchalik dolzarb ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review). Axborot tahdidlari jamiyat hayotiga xavf solish bilan birga, O‘zbekistonning jahondagi obro‘siga putur yetkazadi va fuqarolarning ma’naviy-psixologik xavfsizligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqiqat, ayniqsa, mojaro yoki inqiroz davrlarida ko‘proq ochiq tarzda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchi Ramonet ta’kidlaganidek, Internetning paydo bo‘lishi bilan “Jamiyatda axborot monopoliyasi holatida bo‘lgan ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning qulay holati pasaydi” [2]. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyatga salbiy ta’sir o‘tkazish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Yuqoridagi fikrimizni tadqiqotchi A.I.Greshnevikovning internet-texnologiyalar davrida jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarining jamoat maydonidagi munozaralar ustidan nazoratni o‘rnatish yoki amalga oshirish huquqi shu tariqa

zaiflashmoqda: “Axborot tanlash va nashr etish huquqiga faqat ular ega bo‘lgan vaqt tugadi. Internet ularni “dunyoviy ruhoniylar” sifatida tan olishdan mahrum qiladi” [3] degan fikri bilan tasdiqlashimiz mumkin. Axborot urushini olib borishning vositalari ommaviy axborot vositalari, pochta, mish-mishlar, g‘iybatlar, anekdotlar va boshqalar ” [4] bo‘lishi mumkin. Internetda axborot urushlarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari tarmoqning anonimlik, ko‘p vektorli ta’sirga egaligi, jonli aloqa ustuvorligi va multimedia kabi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Internetning rivojlanishi bilan axborot qarama-qarshiligi ko‘lami keskin oshdi.

Mamlakatimizda internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni qay daraja ortib borayotganligini statistika agentligining ma’lumotlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan, O‘zbekistonda 2023-yil avvalida internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni 26,7 million nafarni tashkil qilgan. O‘tgan yil bilan solishtirganda mazkur ko‘rsatkich 16,3 foizga ko‘p ekanligini alohida e’tirof etib o‘tish kerak. Boisi, internet yaxshi ishlagan mamlakatlardagina undan foydalanuvchilar soni ortib boradi” [5]. Shuningdek, 2021-yilning dekabr holatiga ko‘ra O‘zbekistonda internet orqali ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan aholi soni telegramda 18 million, odnoklassnikida 16,7 million, facebookda 4,7 million, instagramda 3,7 million, vkontakteda 2,6 million, linkedlnda 288 ming, twitterda 51,6 ming nafarni tashkil etgan [5] (1.1-rasmga qarang).

V.S.Alpaskiyning fikricha axborot sohasida davlatning harbiy xavfsizligiga tahdidlarni baholash va prognozlash yettita uslubiy bosqichda amalga oshirilib ular quyidagilardan iborat[6]:

- ☑ axborot sohasida harbiy xavfsizlikka tahdidlarni o‘rganishning nazariy asoslarini shakllantirish;
- ☑ axborot sohasida harbiy xavfsizlikka mumkin bo‘lgan tahdidlar ro‘yxatini shakllantirish;
- ☑ axborot sohasidagi harbiy xavfsizlikka aniqlangan tahdidlarning tasnifi;
- ☑ axborot sohasidagi harbiy xavfsizlikka eng muhim tahdidlar ro‘yxatini shakllantirish;
- ☑ axborot sohasida harbiy xavfsizlikka tahdidlarni modellashtirish;
- ☑ axborot sohasida harbiy xavfsizlikka tahdidlar darajasini baholash.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, axborot sohasidagi tahdidlarni baholash uchun quyidagi algoritmdan foydalanish o‘rinlidir:

1. Axborot sohasida paydo bo‘lgan tahdidlarni aniqlash;

2. Axborot sohasida aniqlangan tahdidlarni tavsiflash;

3. Axborot tahdidlarni shakllanishiga va baholashga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash;

4. Axborot tahdidi oqibatlarini asoslash;

5. Axborot tahdidi xavfliligini baholash.



1.1-rasm. 2021-yilning dekabr holatiga ko‘ra O‘zbekistonda internetdan foydalanib, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan aholi soni

Tadqiqot metodologiyasi (Research Metodology). Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, internet va ijtimoiy tarmoqlarni jamoat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi tahdidlarni aniqlash, ularni har tomonlama baholash algoritmlarini ishlab chiqish va tahdidlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, ushbu sohadagi ishlarimiz samaradorligini oshirishga sezilarli darajada hissa qo‘shadi. Tadqiqotchi

Ushbu algoritmni ishlash jarayonini quyida ko‘rib o‘tsak:

Birinchi bosqichda axborot sohasidagi

tahdidlarni aniqlash amalga oshirilib, tahdidning soni ahamiyatga ega emas. Shu maqsadda barcha mavjud axborot manbalarining monitoringi va tahlili amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy e’tibor jamoat va davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi axborot tahdidlariga e’tibor qaratiladi.

Ikkinchi bosqichda, aniqlangan tahdidlarni har biri himoya tizimiga qo‘yiladigan umumiy talablardan birini aks ettiruvchi bir qator belgilarga ko‘ra tasniflash orqali tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Har bir tahdid turiga mos keladigan xususiyatlar bizga ushbu axborot tahdidini batafsil tavsiflash imkonini beradi. Bunda axborot sohasida tahdidlarning atributlari, tahdidlar ko‘rinishi, ularni amalga oshiruvchi obyektlar va tahdid yo‘naltirilgan subyektlar xususiyatlarini tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil shuni xulosa qilish imkonini beradiki, axborot urushi jamiyat hayotining hodisasi sifatida insoniyat taraqqiyotini belgilashning muhim omillaridan hisoblanib, axborot urushini tinchlik davrida, tahdid bo‘lgan davrda shuningdek, urush davrida ham sifat jihatdan yaxshi va samarali axborot xavfsizligini ta’minlash, davlat taraqqiyotining muhim shartidir. Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot tahdidlarini baholash tizimiga axborot manbasining ishonchliligiga e’tibor qaratmaslik, axborot qabul qiluvchilarning kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi tushunmasligi va huquqiy savodxonligining pastligi kabi komponentlarni kiritish axborot tahdidlarini baholash faoliyatini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jamoat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi axborot tahdidlari shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar ro‘yxatini yanada ko‘proq keltirish mumkin, lekin ushbu omillar axborot tahdidlarini harbiy-siyosiy jihatdan baholash mezonlarini aniqlashga asos bo‘ladi.

Axborot urushini sifatli va samarali olib borishning asosiy sharti esa axborot tahdidlarini o‘z vaqtida aniqlash va uni baholashdir. Shundagina axborot tahdidlariga qarshi yetarli darajada qarshi choralarni ko‘rishimiz mumkin. Davlatning jamoat xavfsizligiga ta’sir qiluvchi axborot xavfsizligi sohasidagi harbiy-siyosiy tahdidlar ro‘yxatini yaratish biz uchun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida samarali faoliyat olib borishimizga imkon beradi.

To‘rtinchidan, tahdidlar ro‘yxatini aniqlashdan tashqari, ularni amalga oshirish qanday oqibatlarga olib kelishini bashorat qilish kerak. Ayrim axborot xavfsizlik tizimi samarali faoliyat olib borilayotgan yoki axborot tahdidlariga qarshi jamiyatda immunitet hosil qilingan davlatlarda uning oqibatlarini oldi olinishi yoki yengilroq kechishi mumkin. Aksincha bo‘lgan hollarda uning oqibatlari salbiy tarzda kechadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan axborot tahdidlarining oqibatlari quyidagilardan iborat:

- **shaxsning huquqlari, diniy e’tiqodi, ma’naviyati, yoki ilmiy salohiyatiga zarar yetkaziladi. Bunda uning axloqiy-ruhiy holati, jamiyatdagi nufuzi va qadriyatlariga zarar yetadi;**
- **davlat boshqaruv organida faoliyat yurituvchilar, jamiyatning obro‘li kishilari, ziyolilar va boshqa muhim ahamiyatga ega shaxslarga nisbatan amalga oshirilib, uning obro‘yiga, insoniy qadr-qimmatiga zarar yetishi;**
- **boshqaruv organlari va turli davlat tuzilmalari yoki muassasalariga qarshi qaratilgan axborot xurujlari;**
- **diniy yo‘llar bilan nizolar keltirib chiqarishga qaratilgan ma’lumotlarni tarqatib, inqirozlarni yuzaga keltirish;**
- **jamiyat ongini va siyosiy qarashlarini boshqarish orqali siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarish;**
- **xorijiy davlatlarning maxsus xizmatlari tomonidan milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi ma’lumotlarni tarqatilishi orqali davlat suvereniteti, chegaralar daxlsizligi va konstitutsion tuzimga nisbatan xavfni yuzaga kelishi;**
- **maxsus maqsadlarni xorijiy nashrlar orqali mamlakatni dunyo hamjamiyati oldida obro‘sizlantirish;**
- **razvedka ma’lumotlaridan foydalanib, qurolli kuchlar axborot xavfsizlik tizimini buzilishi.**

Axborot urushi, psixologik to‘qnashuv, gibrid urush kabi yangi atama va tushunchalar an’anaviy urush haqidagi tasavvurni sezilarli darajada o‘zgartirdi. Bugun maxsus texnologiyalar yordamida dushman armiyasi va aholisiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari sezilarli darajada oshdi. Shu sababli ham axborot tahdidlariga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish hozirgi davrning dolzarb talablaridan biridir.

Beshinchidan, ushbu bosqichda yuqoridagi bosqichlar umumlashtirilib axborot tahdidiga baho beriladi. Axborot tahdidlarini baholash, unga qarshi samarali kurash olib borishda muhim

rol o‘ynaydi. O‘zbekistonlik olim R.Samarovning fikricha “Har qanday axborot, xoh u ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsin, xoh madaniy yoki iqtisodiy sohaga taalluqli bo‘lsin, xalq e’tiboriga havola etiladi. Agarda uning dolzarb turlari mavjudligi e’tiborga olinsa, diqqatni jalb etuvchi g‘oyaviy vazifalarga ko‘ra alohida ta’sir kuchiga ega bo‘ladi” [7]. Bizning fikrimizcha axborot tahdidlari shaxs, jamiyat va davlatga nisbatan turlicha salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Masalan shaxsga qaratilgan axborot tahdidi davlat uchun unchalik yuqori xavf tug‘dirmaydi, chunki davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash tizimida malakali mutaxassislar faoliyat olib boradi. Lekin ushbu tahdidlar shaxsga qaratilganda oqibatlari jiddiyroq bo‘lib, salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Shu sababli biz yuqoridagi tahlillarga asoslanib, “Axborot tahdidlarini baholashning xususiy konseptual modeli”ni taklif qilamiz. “Axborot tahdidlarini baholashning xususiy konseptual modeli”ni taklif qilamiz (1.2.-rasm).

“Axborot tahdidlarini baholashning xususiy konseptual modeli” ga asosan mamlakatning axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar yuzaga kelgan tahdidni ushbu model asosida baholashadi. Bunda tahdidning modelda ko‘rsatilgan tarkibiy qismlarini buzilishiga olib kelgan alomatlari aniqlanganda uni bartaraf etish choralari ko‘riladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Milliy xavfsizlik tizimida davlat xavfsizligi ko‘proq uning institutlarining samarali faoliyatiga bog‘liq. Bu institutlar faoliyati nafaqat davlatni, balki shaxs va jamiyatni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlardan himoya qiladi. Aniqroq aytganda, davlat o‘zini, jamiyatni va shaxsni yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlardan himoya qilish orqali milliy xavfsizlik tizimini shakllantiradi.

AKT rivojlangan hozirgi davrda OAV va ijtimoiy tarmoqlar konfliktni boshlanishi, kechishi va rivojlanishini yoritib boruvchi asosiy vositaga aylanmoqda. Bunday vaziyatlarda OAV va ijtimoiy tarmoqlar g‘arazli (uchinchi kuch)kuchlarning quroliga aylanib qolishi hech gap emas. Shunday ekan, davlat axborot xavfsizligini ta’minlash va samarali axborot kurashini olib borishda axborot tahdidlarini baholash, ushbu tahdidlarga qarshi chora-tadbirlarni o‘z vaqtida ishlab chiqishga imkon beradi.



1.2.-rasm. Axborot tahdidlarini baholashning xususiy konseptual modeli

Аннатация. В данной статье представлены влияние информационных угроз на общественную безопасность через Интернет и средства массовой информации в эпоху развитой глобализации информационно-коммуникационных технологий, а также факторы, влияющие на оценку этих угроз и современные модели оценки информационных угроз. в политическом моделировании, социологических исследованиях, статистическом анализе и были изучены такие методы исследования, как обобщение, на основе различных теорий, подходов и направлений, изучен алгоритм оценки негативного воздействия информационных угроз и конкретная концептуальная модель оценки информационных угроз.

Ключевые слова: Интернет, социальные сети, СМИ, информационная угроза, критерии оценки информационной угрозы, выявление информационных угроз.

Abstract. In this article, the impact of information threats on public security through the Internet and mass media in the era of advanced globalization of information communication technologies, as well as the factors affecting the assessment of these threats and modern models of information threat assessment are presented in research methods such as political modeling, sociological survey, statistical analysis and generalization. have been studied, based on various theories, approaches and directions, an algorithm for assessing the negative impact of information threats and a specific conceptual model of information threat assessment have been researched.

Key words. Identification of the internet, social networks, Media, Information threat, information Threat Assessment Standards, information threats.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O‘zbekiston, 2018 – 486 s.

2.Делягин М.Г. Мировой кризис : Общая теория глобализации : Курс лекций / М. Г. Делягин ; Ин-т проблем глобализации (ИПРОГ). - 3. изд., перераб. и доп. - М.: Инфра-М, 2003 (Н. Новгород : ГИПП Нижполиграф). – 766 с.

3.Грешневиков А.И. Информационная война. Внешний фронт. Зомбирование, мифы, светные революции. Книга I. М.: Книжный мир, 2016г. – 512 с.

4.Акбаров А.С. “Вооруженные конфликты будущего”. - Тошкент, 2018. – 123-124с.

5. O‘zbekistonda-internetdan: https://ict.xabar.uz/reytinglar/ 17.08.2023 13:13

6.Алпацкий В.С. Методический подход к оценке и прогнозированию угроз военной безопасности государства в информационной сфере. “Военная мысль”, №9-2023. – 31 s.

7. Samarov R., Radjabov A. Siyosiy matn tahlili (metodologiya, nazariya, amaliyot). – Toshkent. AkademiY. 2010. – 14 s.

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MINTAQASI XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHDAGI SIYOSATINING YANGI TENDENSIYALARI

Sattorov Asrorjon Akramjonovich
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqada hamkorlik yo‘lida mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan O‘zbekistonning mintaqaviy siyosatidagi yangi tendensiyalar va ularning qisqa davrdagi natijalari va bu boradagi mavjud muammolar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tendensiya, mintaqaviy siyosat, kontinent, transport-logistika, “Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘li, chegaralar delimitatsiyasi va demorkatsiyasi, “O‘zbekiston 2030“, “Bir makon, Bir yo‘l” loyihasi, iqtisodning o‘sish tendensiyalari.

Yurtimiz milliy mustaqilligi o‘zbek xalqi tomonidan uzoq yillar kutilgan asriy orzu hisoblanadi. O‘zbek xalqi davlatchiligi deyarli uch ming yillik tarixni qamrab olsa-da, bu davrning juda katta qismi qaysidir mamlakat, imperiya yoki saltanatlarga qaramlikda o‘tgan. Mana shu davlatchilik tarixining atiga sakkiz yuz ellik yiligina milliy mustaqil davlatchiligimiz tarixidan iboratdir.

O‘zbek xalqi va qardosh xalqlar bilan doim birlashganda, bir maqsadli bo‘lganda o‘z mustaqil davlatchiligini qura olgan va bu davlatlar yirik saltanatlarga aylangan.

Mana shunday yana bir bora birlashish imkoniyati XX asrning oxirgi o‘n yilligida yuz berib, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi tashkil topdi.

Qisqa davrda chinakam huquqiy-demokratik, suveren davlat qaror topdi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligining o‘ttiz uch yilligini nishonlash arafasida turibdi. Istiqlol el-yurtimiz uchun o‘z taqdirining haqiqiy egasi bo‘lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda iste’dod va qobiliyatini to‘la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishining mustahkam zaminidir.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan xalqchil, adolatli va keng qamrovli islohotlar butun xalqimiz hayotida o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bunda xalq manfaati barcha narsadan ustun darajaga olib chiqildi. “Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan tamoyil asosida barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari o‘z faoliyatlarini olib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti yuqori minbarlardan yurtimizda bugun yuz berayotgan o‘zgarishlar, strategik islohotlar va barcha jabhadagi yangilanishlarning zamirida albatta xalqimizning birlashib, bir tan-u bir jon bo‘lib mehnat qilishi yotganligini ta’kidlamoqda. Prezident ilk bor BMTning 72-sessiyasidagi nutqida bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanayotganligi, ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, qat’iy islohotlar amalga oshirayotganimiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan borayotganligimizni ta’kidlagan edi. Islohotlardan ko‘zlangan maqsad – ‘’Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat ekanligini bildirilgan edi[1]. Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda mamlakatimiz taraqqiyot yo‘lining o‘ziga xos strategiyasi – Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi va unga asoslangan islohotlarni izchillik bilan olib borilishi yurtimiz ravnaqining bosh mezoni bo‘ldi. Ushbu yangilangan strategiyada O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan keng ko‘lamli

hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi muhim maqsad belgilandi.

Mustaqillikni mustahkamlash yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarda yurtimizning jahon hamjamiyatida, mintaqa hududida o‘z o‘rnini egallash va ushbu hamkorlikni mustahkamlash borasidagi islohotlar muhim hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy barqarorlik, xavfsizlikni ta’minlash borasidagi yangi tashabbuslar mintaqani yanada barqarorlashuviga va xavfsizlik barqaror bo‘lishiga xizmat etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida bugungi kunda butun dunyoda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch muhiti va xavfsizlikni yanada mustahkamlash uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimligini keltirib o‘tadi[2.312].

Shuningdek, yangilangan tashqi siyosatning huquqiy negizini yanada mustahkamlash va yangi yo‘nalishlarni ochish, an’anaviy tashqi hamkorlar bilan munosabatlarni yanada mustahkamlash maqsadida 2022 yil 28 yanvar kunidagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning yettinchi ustuvor yo‘nalishi “Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat olib borish” deb belgilandi. Taraqqiyot strategiyasining yettinchi ustuvor yo‘nalishining 94-maqsadida Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish maqsadlari belgilangan bo‘lib, bu maqsad doirasida mintaqa davlatlari bilan oliy darajadagi muloqot va ikki tomonlama hamkorlikning barcha formatdagi mexanizmlari asosida yig‘ilishlarni tashkil etish vazifasi belgilangan edi. Shuningdek, mintaqaviy tashkilotlar doirasida O‘zbekistonning milliy manfaatlarini faol ilgari surish kabi muhim yo‘nalishlar belgilangan[3].

O‘zbekiston Prezidenti BMTning sessiyalaridagi nutqida mintaqada hamkorlikning yangi bosqichi boshlanganligi va yangi taraqqiyot markaziga aylanishini ta’kidlab o‘tgan edi. Xususan, “Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir” deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston rahbari[4.249].

Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan transchegaraviy masalalarni hal qilinishi, chegaralarni qayta delimitatsiya va demorkatsiya qilinishi natijasida, aholi o‘tish punktlari ochilishi hisobiga mintaqa davlatlari o‘rtasida savdo ayriboshlash bir necha barobar oshganligini ko‘rish mumkin. Birgina Tojikiston Respublikasi bilan savdo ayriboshlash 2017-yildan 2023-yilgacha o‘n marotaba oshganligini ko‘rish mumkin.

Ushbu tendension o‘zgarishlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham sezilarli ta’sir etib oxirgi yetti yilda rivojlanib YAIMning o‘sishi kuzatilmoqda. 2023 yilda o‘rtacha hisoblanganda nominal YAIM 90,9 mlrd dollarga yetdi. Bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 9,7 mlrd. AQSH dollariga, 2017 yilga nisbatan 28,9 mlrd. AQSH dollariga oshgan. 2023 yilda aholi jon boshiga YAIM joriy narxlarda 29,3 mln. so‘mni tashkil etdi va 2022 yilga nisbatan 3,8%ga o‘sdi. 2017-2023 yillarda aholi jon boshiga YAIM 25,3%ga o‘sdi. Kuzatilayotgan davrda aholi jon boshiga YAIMning o‘rtacha yillik o‘sishi 3,3%ni tashkil etmoqda.

Yalpi ichki mahsulotning oshishi albatta, aholi farovonligi oshishiga, ish haqi minimumlarining barqarorlashuviga xizmat qiladi. Bu ko‘rsatkich va natijalar to‘g‘ri



O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi jon boshiga YAIM

yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlar va taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlarning amaliy natijasidir. Mamlakat iqtisodiy barqarorligi bu milliy mustaqillikni mustahkamlashning muhim omillaridan hisoblanadi.

2024-yilning dastlabki choragining o‘zida O‘zbekistonning tashqi savdosida mintaqaning uch davlati Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston yetakchilik qilmoqda edi. E’tiborlisi ochiq progmatik tashqi siyosat va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan strategik islohotlar natijasida an’anaviy iqtisodiy hamkorlar bilan tashqi savdo aylanmasida katta ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin.

2022-yil 25-26 mart kunlari poytaxtimizda ilk bor Xalqaro investitsion forum bo‘lib o‘tdi. Unda qirqqa yaqin davlat investorlari, bir qator xalqaro iqtisodiy tashkilotlar rahbarlari va a’zolari ishtirok etdi. Forum doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqida yurtimizda investitsion muhim juda qulayligi, sarmoyalar besamar ketmasligi va O‘zbekiston dunyoda ko‘p tabiiy zaxiralarga ega yigirma mamlakatdan biri ekanligini ta’kidlab o‘tgan edi.

Markaziy Osiyoning asosiy va kam uchraydigan geoiqtisodiy muammolaridan biri bu mintaqa davlatlarining dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyatining yo‘qligidir.

Jahonda dengiz yo‘llaridan uzoqda joylashganlik nuqtai nazaridan bunday noqulay holatda bo‘lgan boshqa mintaqa yo‘q. Markaziy Osiyoning o‘rtasida joylashgan O‘zbekiston uchun bu muammo ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Nafaqat, O‘zbekiston, balki qo‘shnilari ham ochiq dengizga chiqish imkoniyatiga ega emas. O‘zbekiston eng yaqin dengiz portidan uch ming kilometr uzoqda joylashgan dunyodagi yagona mamlakat hisoblanadi.

Bugungi kundagi mamlakatimiz tashqi siyosatidagi mintaqaviy siyosatning muhim tendensiyalaridan biri bu transport-kommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish va bu yo‘ldagi barcha to‘siqlarni olib tashlash hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti uchun haligacha Markaziy Osiyo mintaqasi birinchi navbatda xom ashyo manbai sifatida o‘z xususiyatini saqlab qolmoqda. Shunga qaramay, Yevroosiyo qit’asining markazida joylashgan mintaqa davlatlari iqtisodiyoti va sanoatini rivojlantirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini ta’minlovchi qator qiyosiy yutuqlarni o‘zida aks ettirishi ta’kidlab kelinadi.

Mintaqaning Osiyo va Yevropa mamlakatlari o‘rtasida tovar va kapital oqimining tranzit yo‘lagiga aylanib borayotgani hisobga olinsa, integratsiya loyihalarini qo‘shni davlatlar bilan faol hamkorlik qilmasdan, ularning yuksak darajada integratsiyalashuvini ta’minlamasdan barpo etib bo‘lmasligi aytiladi [5. 132].



2024-yilning dastlabki choragida O‘zbekistonning tashqi savdosi

Mintaqaviy va mintaqalararo transport loyihalarini amalga oshirish hozirgi bosqichda barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun alohida ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuviga ko‘ra, Shimol va Janubni, G‘arb va Sharqni magistral tranzit koridorlari orqali bog‘lab turadigan Markaziy Osiyo mintaqasining o‘zagi hisoblanadi”[6].

2023-yil 11-sentabr kuni Prezidentning PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “2030-yilga qadar

iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish” deb nomlangan maqsadida belgilangan vazifalarning muhim ijrosiga yuqoridagi mintaqaviy muammolarni bartaraf etish orqali va mintaqada investitsion muhit jozibadorligini oshirish orqali erishish mumkin. Bu ko‘rsatkichni 2030-yilga borib 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazishda albatta xalqning birligi va birgalikdagi mehnatning o‘rni ham muhim hisoblanadi[7].

Bu uchun albatta mintaqada savdo va uning infratuzilmalarini yanada takomillashtirish borasida muhim islohotlar, transport – logistika tizimini rivojlantirish talab etiladi.

Qisqa muddatda uzoq yillardan beri yechilmay kelayotgan og‘ir muammolar – chegaralararo o‘tish yo‘laklarini ochish, o‘zaro savdo munosabatlarini muvofiqlashtirish, transport-kommunikatsiya tizimidagi qator muammolar O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev irodasi va amaliy tashabbuslari bilan o‘z yechimini topdi. BMT tomonidan O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta’minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga doir maxsus rezolutsiyasi qabul qilindi. Ushbu rezalyutsiya dunyo hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Bu say-i harakatlar albatta qo‘shni respublikalarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ham ta’sir etmoqda.

Misol uchun yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida o‘zaro munosabatlar deyarli muzlab qolgan Tojikiston Respublikasining Prezidenti Imomali Raxmonning 2018-yilning 17-18 avgust kunlari yurtimizga qilgan tashrifi bilan bu munosabatlar yancha yumshab, hamkorlik yangi bosqichga olib chiqildi. Bu tashrif bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning strategik yo‘nalishlarini belgilab olishda juda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tashrif doirasida sanoat, qishloq xo‘jaligi, geodeziya va geologiya, madaniyat, standartlash va sertifikatlash, chegaradan o‘tkazish, ta’lim hujjatlarini tan olish va boshqa sohalarda hamkorlikka doir umumiy 27 ta hujjat imzolangan edi.

2021-yil oxiridagi holat bo‘yicha O‘zbekiston-Tojikiston savdo aloqalari 604.5 mln. dollarga yetdi. Shundan 500.9 mln dollar O‘zbekistonning eksporti bo‘lsa, Tojikiston esa O‘zbekistonga 100,6 mln dollar miqdorida mahsulot va xizmatlar eksport qildi[5.115].

Bu natijalardan O‘zbekiston va Tojikiston o‘zaro tashqi savdolarida bir-birlari uchun eng muhim 10 ta davlat qatoriga kirishadi.

Mintaqada bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarini yagona transport logistika tarmog‘iga integratsiyalashuvi va jahon bozorlariga chiqishni ta’minlash zaruriyati bilan izohlanadi. Bu tizimni takomillashtirish va rivojlantirish O‘zbekiston Respublikasi mintaqaviy siyosatining muhim tendnsiyasi hisoblanadi.

Mintaqada Xalq diplomatiyasi doirasidagi aloqalarni, jumladan, turizm bo‘yicha forumlarni tashkil etish orqali faollashtirish muhim hisoblanadi. Shubhasiz, bu xalqlarimiz o‘rtasidagi ishonch va o‘zaro anglashuvning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo ulkan geostrategik va geoiqtisodiy ahamiyatga ega mintaqa. Bu yerda 74 milliondan ortiq aholi yashaydi. Ularning tarixi va madaniyati, mamlakatlarimizning iqtisodiyoti va infratuzilmasi bog‘lanib ketgan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida Qozog‘iston nisbatan rivojlangan tranzit salohiyatini inobatga olgan holda, “Xitoy-Yevropa” yo‘nalishi bo‘yicha yuk tashish hajmini oshirishni o‘zining ustuvor vazifasi qilib qo‘ydi. Ushbu maqsadga erishish uchun 2016-yildayoq Xitoyning “Ipak yo‘lining iqtisodiy kamari” tashabbusini Qozog‘istonning “Nurli yo‘l” milliy dasturi bilan birlashtirish bo‘yicha hamkorlik rejasi imzolangan edi. XXR raisi Si Szinpin bu harakatni “Bir kamar, bir yo‘l” loyihasining eng muhum siyosiy natijalaridan biri deb atadi.

Xitoyning 2005-2017 yillarda Qozog‘iston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritgan sarmoyalari hajmi 13.9 mlrd dollarni tashkil etgan[5.133].

Bu borada O‘zbekiston rahbarining sa’yi harakati va tashabbuslari asosida “Bir makon bir yo‘l” loyihasining tarkibiy qismi bo‘lgan “Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish tashabbusi mintaqa davlatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

2016-yil iyul oyida qurib bitkazilgan “Angren-Pop” elektrlashtirilgan temir yo‘li ishga tushishi Xitoygacha bo‘lgan masofani 270 km ga qisqartirdi.

“Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston” temir yo‘lini qo‘rilishi O‘zbekistonning global logistika yo‘nalishlari tarmog‘iga qo‘shilishini ta’minlovchi muhim elementga aylandi.

2022-yil sentabr oyida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan SHHTning navbatdagi sammitida bu loyiha bo‘yicha uch davlat transport vazirlari ishtirokida temir yo‘l qurilishi bo‘yicha bitim imzolandi.

Manfaatdor davlatlar bilan muzokaralar natijasida ushbu temir yo‘l loyihasi muhokama

qilinib, temir yo‘lni qurish jarayonlari boshlandi.

Natijada, O‘zbekiston nafaqat Xitoyga, balki Yaqin Sharqqa ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari O‘zbekistonning birinchi navbatda janubiy viloyatlaridan yuklarni tashish uchun tashqi savdo yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish, shuningdek O‘zbekistonni Xitoy bilan bog‘lovchi muqobil yo‘lak yaratish maqsadida “O‘zbekiston-Tojikiston-Xitoy” yo‘nalishi bo‘yicha tajriba-sinov yig‘inini tashkil etish, Tojikiston hududi orqali O‘zbekiston Respublikasining Xitoy loyihasida muvaffaqiyatli ishtirok etishida muhim rol o‘ynaydi.

Shu sababdan ham bugungi kunda O‘zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari qatori xalqaro kommunikatsiyalar tizimini rivojlantirish, muqobil transport yo‘laklari tashkil etishni o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash strategiyasida birinchi o‘ringa qo‘ymoqda [5.137].

Umuman olganda mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi siyosatimizning yangi tendensiyalari mamlakatimiz va mintaqa taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etib, mintaqa mamlakatlarining iqtisodiy salohiyatini mustahkamlanishiga ham xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz rahbari ta’kidlaganidek, qisqa vaqt ichida mintaqaviy o‘tkir muammolar, jumladan chegara, savdo, transport va suvdan foydalanish masalalarini amaliy hal qilish yo‘lida ancha katta marralarga erishildi[4. 405].

Bu marralarning tub zamirida O‘zbekiston rahbari tomonidan bu yo‘nalishdagi yangi siyosiy tendensiyalarning o‘rni va roli juda muhim hisoblanadi.

Аннотация. В статье рассматриваются новые направления в региональной политике Узбекистана, направленные на обеспечение безопасности и стабильности в Центральноазиатском регионе и их результаты за кароткий период, а также существующие проблемы в этой связи.

Ключевые слова: тенденции, региональная политика, континент, транспортно-логистический комплекс, железная дорога “Китай-Киргизистан-Узбекистан”, делимитация и деморализация границ, “Узбекистан – 2030”, проект “Одно пространство, Одна дорога”, тенденции роста экономики.

Abstract. The article examines new directions in Uzbekistan's regional policy aimed at ensuring security and stability in the Central Asian region, eliminating existing problems in the direction of cooperation in the region and their results in a short period, as well as existing problems in this regard.

Key words: : trend, regional policy, continent, transport-logistics, “China-Kyrgyzstan-Uzbekistan” railway, delimitation and demoralization of borders, “Uzbekistan - 2030”, “one Space, One Road” project, trends in the growth of the economy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMTning 72-sessiyasidagi nutqi. Xalq so‘zi. 2017 y. 20 sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Xalq so‘zi. 2022 yil 29 yanvar.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: 2018.
5. Mirzayev G‘.R. O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi. Monografiya. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2002.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabr kunidagi “O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 24 mart kuni bo‘lib o‘tgan birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. Yangi O‘zbekiston. 29.03.2022.

O‘ZBEKISATONDA JAMOAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA’MINLASH - MILLIY GVARDIYA FAOLIYATINING ASOSIY MEZONI

Haydarov Alisher Usmon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga ta’minlashda Milliy gvardiyaning faoliyat yuritishi mezon sifatida belgilangan. Xususan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishlarida mamlakat kuch tuzilmalari qatori Milliy gvardiya oldida ham jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasida faol ishtirokini ta’minlash maqsadida davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlarni olib borilishi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Qurolli Kuchlar, Milliy gvardiya, Qo‘riqlash xizmati, Jamiyat xavfsizligi, jamoat tartibi, barqarorlik, milliy xavfsizlik, davlat va jamoat tashkilotlari.

Mamlakatimizda 2017-2021 yillar davomida “O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlariga asoslangan harakatlar strategiyasi”[1] asosida islohotlarning barcha yo‘nalishlarida keng ko‘lamli amaliy ishlar amalga oshirildi. Ushbu yillar davomida barcha sohalardagi qonunchilik asoslari takomillashtirildi. “Harakatlar strategiyasi” asosda turli sohalarga doir to‘rt yuzga yaqin qonun va uch mingdan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”[2] qabul qilinib, islohotlarning yettita yo‘nalishiga qaratilgan 100 ta maqsad belgilandi. Mamlakatimizda 2023-yil Yangilangan Konstitutsiya xalqimiz muhokamasidan o‘tib tasdiqlandi. 2023-yil 9-iyul kuni Prezidentlik saylovlari barcha saylov qonunchiligi talablari asosida o‘tib, xalqimizning yana bir karra demokratik, huquqiy islohotlarga xayrixohligini tasdiqladi.

2023-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №158-son Farmoni[3] bilan xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

Ta’kidlash joizki, xavfsizlikni ta’minlash barcha davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik, jamoat tuzilmalari, shuningdek fuqarolar bilan munosabatlari hamda ijtimoiy faoliyatning natijasi sifatida ularning xatti-harakatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Siyosiy tizim (davlat, jamoat birlashmalari) jamoat tartibini shakllantiradi, ijtimoiy xatti-harakatlar qoidalarini o‘rnatish, ularning ijrolari va ularga rioya etilishini ta’minlash orqali ijtimoiy munosabatlarga faol ta’sir ko‘rsatadi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bir qator demokratik qarashlar va yondashuvlarga tayangan holda, o‘z faoliyatini quyidagi ustuvor tamoyillar asosida tashkil etgani va olib borayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Milliy gvardiya faoliyatining asosiy tamoyillari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etish, yagonalik, mustaqillikdan iboratdir.

Prinsiplar nafaqat bitta fan yoki soha, balki butun mamlakatda amalda bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini belgilashda, mamlakat istiqboli yo‘lida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda rahbariy ko‘rsatmalar vazifasini o‘taydi.

Soha yo‘nalishi bo‘yicha V.M. Boyer va V.N. Shamray jamoat xavfsizligini ta’minlash – har qanday davlatning barqaror mavjudligining muhim va majburiy elementlaridan biridir , A.I.Yastrebova har qanday davrda huquqni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash davlatning, xususan, politsiya organlarining

asosiy faoliyat yo‘nalishi hisoblangan .

Biroq, jamiyat xavfsizligi xorijlik olimlar tadqiqotlarida o‘rganilmagan va alohida kuch tuzilmalarining faoliyati misolida tadqiq etilmagan.

Milliy gvardiya faoliyatining ustuvor tamoyillari asosida jamiyat siyosiy hayoti farovonligi ta’minlanadi. Milliy gvardiya faoliyatining qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etish, yagonalik, mustaqillik asosiy tamoyillari Milliy gvardiya faoliyatining boshlang‘ich asosi, negizi, ustqurmasi, rahbariy qoidalari hisoblanadi[5].

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etishi hamda ularni bajarishi shart[6].

Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya etishdan har qanday chetga chiqish, ularning sabablari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, qonuniylikni buzishdir va u belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi Milliy gvardiya faoliyatini, unga mazkur qonunda yuklatilgan tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish vazifalarini yuritish sohasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi[7].

Milliy gvardiya faoliyatida qonuniylik tamoyilining mohiyati shundan iboratki, tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bosqichida amalga oshiriladigan harakatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonunlariga zid kelmasligi va ularga muvofiq amalga oshirilishi protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida[8] ham fuqarolarni qonunni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish harakatlarini olib boradigan mansabdor shaxslar tomonidan qonuniylik prinsipiga amal qilish ularning jinoyat sudlov ishlarini yuritishdagi mavjud masalalarni hal qilish va samarali faoliyat olib borishlari uchun zarur shart hisoblanadi[9].

Qonuniylik tamoyili orqali inson va fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy huquq va erkinliklarini tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda rioya qilinishiga erishiladi.

Qonunlarni buzish uchun javobgarlik qonuniylik prinsipining muhim qismi hisoblanadi. Qonunlarni aniq bajarish va ularga rioya qilish protsessual harakatlarda ishtirok etuvchi har bir shaxs uchun majburiydir. Surishtiruvda ishtirok etuvchi har bir shaxsning o‘z qonuniy majburiyatlarini bajarishi natijasidagina boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlari amalga oshadi.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish tamoyili asosida amalga oshiradi.

Milliy gvardiya tuzilmalari fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlaydi.

Mamlakatimizdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatori Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) ham o‘z faoliyatini fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish tamoyili asosida amalga oshiradi.

Mazkur tamoyil Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) bilan ishda ishtirok etadigan shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni shunday belgilaydiki, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) ishda ishtirok etadigan shaxslarning sha’ni va qadr-qimmatini muhofaza qilishi shart, ishda ishtirok etadiganlar esa inson qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlardan himoya qilish vositalari majmuiga egadirlar. Jumladan, ularning manfaatlarini cheklash yoki buzishga olib keladigan mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat arizasi berishlari mumkin.

Ushbu tamoyil shaxsga jismoniy va ma’naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish uchun to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Eksperiment, guvohlantirish, shaxsiy tintuv o‘tkazilganda ishtirok etadigan shaxslarning sha’ni, qadr-qimmatini kamsituvchi, sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadigan harakatlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Agar ish yuritilishida protsessda ishtirok etadigan shaxslarning shaxsiy hayotiga, farzandlikka

olish, tibbiy sirlar va boshqalarga taalluqli ma’lumotlar aniqlansa, milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) mazkur ma’lumotlarni tarqalib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev aytib o‘tganlaridek, “bugungi kunda biz “Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta’minlashga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Shu munosabat bilan mana shu yangi tuzilma, ya’ni, Milliy gvardiya tashkil etildi. Endi bundan buyon har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas’ul va javobgar etib belgilanadi”[10], degan so‘zlari Milliy gvardiyaning barcha shaxsiy tarkibi uchun dasturulamal va strategik vazifa bo‘lib xizmat qilmoqda.

Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi muhim bo‘g‘inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatdi. Oxirgi 15-20 yil davomida jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalariga noto‘g‘ri yondashuv tufayli bu muhim masala mamlakatimizda e’tibordan chetda qolib kelgan. Bu tizimning aniq egasi bo‘lmaganligi, jamoat tartibi masalalari bilan shug‘ullanadigan bo‘linmalar goh Ichki ishlar vazirligi, goh Mudofaa vazirligi tasarrufida bo‘lib kelganligi, shuningdek jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash bo‘yicha o‘quv mashqlari deyarli o‘tkazilmaganligi, tezkor vazifalarni bajarish zarur bo‘lgan paytda turli byurokratik to‘siqlarga duch kelinganligi oqibatida sohaga oid tezkor qarorlar o‘z vaqtida qabul qilinmagan hamda vazifalar samarali bajarilmagan. Holbuki, butun dunyoda mamlakat ichida tartib-intizom va jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan armiya emas, Mudofaa vazirligi emas, balki alohida tuzilmalar shug‘ullanadi.

Ma’lumki, bugungi kunda “Xavfsiz shahar – xavfsiz mamlakat” konsepsiyasi asosida har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasini amalga oshirish, jamoat tartibini saqlash uchun Ichki ishlar vazirligi bilan birga Milliy gvardiya mas’ul va javobgar etib belgilangan[11]. Hozirda Milliy gvardiya bu vazifalarni bajarish uchun joylardagi davlat hokimiyati idoralari, jamoat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlikda faoliyat olib bormoqda.

Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi[12]. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan nafaqat Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarni, balki mamlakatimiz yoshlarini ham Ona Vatanga sadoqat, uning har bir qarich yerini himoya qilishda sidqidildan xizmat qilish kabi harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘nalishlarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda[13].

Uzoq yillar davomida sohada to‘planib qolgan jiddiy muammolar: kadrlar masalasi, qo‘shinlarni zamonaviy qurol aslaha bilan ta’minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar va harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari ijobiy hal qilindi. Ko‘pgina masalalar yuzasidan aniq qarorlar qabul qilindi[14].

Milliy gvardiyaga bir qator yangi vakolat va vazifalarning yuklatilganligi muhim voqea bo‘ldi.

Jumladan, Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab qo‘yildi:

- **jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;**
- **terrorizmga qarshi kurashishda ishtirok etish, shuningdek terrorchilik harakatlarining oqibatlarini bartaraf etish;**
- **tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish;**
- **davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash;**
- **qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;**
- **fuqaroviy va xizmat qurolining hamda uning o‘q-dorilarining muomalasi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;**
- **jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlashda, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini va xavfsizligini ta’minlashda, shuningdek tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda hodisalarni bartaraf etishda ishtirok etish[15];**
- **favqulodda holat, alohida davr va**

terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta’minlashda ishtirok etish;

- **qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish;**
- **chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish;**
- **huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilishda ishtirok etish;**

O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegaralarini qo‘riqlash hamda mudofaa qilish, aholini, obyektlarni va kommunikatsiya vositalarini dushman harakatlaridan, qo‘poruvchilik va terrorchilik harakatlaridan himoya qilish maqsadida, shuningdek favqulodda holat rejimini ta’minlash uchun hududiy mudofaani tashkil etishda ishtirok etish.

Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi harbiy tuzilmalarga ega bo‘lgan huquqni muhofaza qiluvchi organligi aniq belgilangan.

Milliy gvardiya yangi tashkil etilgan va huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan davlat organi bo‘lganligi sababli qonunda Milliy gvardiyaning huquqni muhofaza qilish funksiyasi va vazifasining doirasi belgilangan. Xususan, jamoat tartibi va xavfsizligi, shu jumladan, ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda, shuningdek tabiiy va texnogen xususiyatga ega favqulodda hodisalarni bartaraf etishda hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida jamoat joylarida patrullik qilishda ishtirok etish Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Terrorizmga qarshi kurash borasida Milliy gvardiya quyidagilarni amalga oshirish vakolatiga ega:

terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlash va qo‘riqlash bo‘linmalari xizmat xonalariga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga olib borishni amalga oshirish, shuningdek shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish, buyumlarni ko‘zdan kechirish, bevosita huquqbuzarlik obyekti yoki quroli hisoblanuvchi buyum va hujjatlarni olib qo‘yish;

nazorat o‘tkazish joylarida va terrorizmga qarshi kurash yoki boshqa maxsus tezkor-jangovar operatsiyalar o‘tkaziladigan obyektlarda o‘z vakolatlari doirasida zaruriy muhandislik-texnik vositalaridan foydalangan holda avtotransport vositalari va shaxslarning tekshiruvini amalga oshirish;

davlat organlari maxsus bo‘linmalarining davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha maxsus antiterroristik va boshqa tezkor-jangovar maxsus tadbirlarni o‘tkazishdagi kuch ishlatish bosqichida jangovar himoya qilish jarayonida, agar ularni terrorchilik faoliyatiga, boshqa huquqbuzarliklarni amalga oshirishga daxldor deb gumon qilishga yetarli asoslar mavjud bo‘lsa, fuqarolarni shaxsan ko‘zdan kechirish;

terrorchilikka qarshi yoki boshqa maxsus tezkor-jangovar operatsiyalar o‘tkaziladigan hududda joylashgan, o‘rab olingan ko‘chalar va yo‘llardagi transport vositalari hamda yo‘lovchilarning harakatlanishini vaqtinchalik taqiqlash yoki cheklash;

terrorizmga qarshi kurash yoki boshqa maxsus tezkor-jangovar operatsiyalar o‘tkaziladigan vaqtda tabiiy joy maydonlari, turar joy, imorat, inshoot va boshqa obyektlarni o‘rab (qurshab) olish.

Terrorchilikka qarshi kurash borasida Milliy gvardiyaga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

terrorizmga qarshi kurash yoki boshqa maxsus tezkor-jangovar operatsiyalar o‘tkaziladigan obyektga qarshiliksiz noqonuniy kirish yo‘llarini chegaralash, nazorat o‘tkazish tartibini o‘rnatish;

diversiya, terrorchilik va boshqa qonunga xilof qurollangan tuzilmalarga qarshi kurashishda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga ko‘maklashish;

tegishli davlat organlari bilan hamkorlikda terrorchilikka qarshi va boshqa tezkor-jangovar maxsus operatsiyalarni rejalashtirish va amalga oshirishda ishtirok etish. Terrorizmga qarshi operatsiyani o‘tkazish davrida, kuch va vositalarni samarali qo‘llash uchun operatsiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi omillarini inobatga olish zarur bo‘ladi.

Bugungi kunda jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat oldida turgan vazifalar orasida ekstremizm

va radikalizmning har qanday ko‘rinishlariga, xalqaro terrorizmga qarshi izchil kurashish uchun butun kuchlarni safarbar etishdek o‘ta muhim vazifa ham borligini alohida aytib o‘tish kerak.

Davlatning milliy xavfsizligini ta’minlash sohasidagi faoliyati vazifalari hamda yo‘nalishlari doirasi anchagina kengdir. Dunyoda narkotrafik muammolar jiddiy tus olmoqda, ko‘pgina davlatlarda ommaviy tartibsizliklar avj olmoqda, yadroviy va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalish xavfi bartaraf etilgani yo‘q. Ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar, ilmiy-texnikaviy, texnologik va axborot tarqatish hamda ekologik sohalarda ham ko‘pgina muammolar mavjudki, ular kuchayib, milliy xavfsizlikka tahdidga aylanishi mumkin[16].

Mamlakatning o‘z milliy xavfsizligini ta’minlashga tayyorligi mezonlaridan biri yetarli darajada qudratli siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatning mavjudligi bilan bir qatorda, shunga batamom muvofiq keladigan Qurolli Kuchlar faoliyatining takomillashib borishiga bog‘liqdir.

Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq zimmasiga yuklatiladigan boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Milliy gvardiya Milliy gvardiyaning qo‘mondoni rahbarlik qiladigan yagona markazlashtirilgan tizimdan iboratdir.

Milliy gvardiya qo‘mondoni o‘z faoliyatini amalga oshirishda bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysunadi.

Milliy gvardiya huquqni muhofaza qiluvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi Milliy gvardiya o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarning ahamiyati va hajmidan kelib chiqib juda keng tizimga ega bo‘lib Milliy gvardiya tizimi o‘z maqomiga ko‘ra vazirga tenglashtirilgan Milliy gvardiya qo‘mondoni tomonidan boshqariladi Milliy gvardiya qo‘mondoni milliy gvardiya organlarining eng yuqori turuvchi mansabdor shaxsi hisoblanadi va Milliy gvardiya tizimiga umumiy rahbarlikni ta’minlaydi[17].

Milliy gvardiya tizimiga kiritilgan barcha tuzilma, qism va ta’lim muassasalari yagona va markazlashgan holda boshqariladigan yaxlit tizimni tashkil etadi. Milliy gvardiya organlarini boshqarish va ularga rahbarlik qilish Milliy gvardiya qo‘mondoni va Milliy gvardiya organlarining boshqa mansabdor shaxslari tomonidan boshqariladi.

Milliy gvardiya boshqa davlat boshqaruvi organlari tomonidan boshqarilmaydi. Milliy gvardiya o‘z vakolatlarini har qanday davlat organlari, boshqa tashkilotlar va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo‘ysungan holda amalga oshiradi.

Milliy gvardiya faoliyatiga davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va mansabdor shaxslarning aralashuvi taqiqlanadi.

Milliy gvardiya faoliyatining asosiy negizi qonunga bo‘ysungan holda ishni tashkillashtirishdir. Bu esa, Milliy gvardiya o‘z faoliyatini amalga oshirishda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan davlat organlari, boshqa korxona, muassasa, tashkilotlar, shuningdek nodavlat va notijorat tashkilotlar, barcha toifadagi mansabdor shaxslardan holi ravishda ishini amalga oshirishini anglatadi, o‘z faoliyatini mustaqil holda amalga oshirishi qoidasini o‘rnatadi.

Mustaqillik prinsipi amaldagi qonun hujjatlari va umumiy qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilishni istisno etmaydi va Milliy gvardiya organlari o‘z ish faoliyatida qonuniylikka prinsipiga rioya qilishga majbur etadi.

Mustaqillik prinsipi Milliy gvardiyaning ish faoliyati asosiy yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash yo‘lida amalga oshiriladi. Qonun normasi bilan Milliy gvardiya organlarining faoliyatiga davlat organlari, boshqa korxona, muassasa, tashkilotlar, shuningdek nodavlat va notijorat tashkilotlar, barcha toifadagi mansabdor shaxslarning aralashuviga imperativ taqiq o‘rnatilgan.

Xulosa o‘rnida Milliy gvardiyaning davlat va jamiyat xavfsizligini ta’minlashdagi ishtirokini takomillashtirish yuzasidan rivojlangan davlatlarning jamiyat xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasidagi tajribasini tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni keltirib o‘tish mumkin:

☑ **birinchidan,** davlatning har bir hududida, shu qatori uzoq qishloqlarda ham, kunu-tunlik xizmatini tashkil qilish jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini samarali ta’minlashga asos bo‘la oladi;

☑ **ikkinchidan,** jinoyatlarni oldini olish va huquq-tartibotni ta’minlash masalasida mahalliy aholi bilan yaqin aloqada bo‘lish, ularning yashash va ish joylariga tashrif buyurish, tegishli tavsiyalar berish va takliflarini tinglash samarali hisoblanadi;

☑ **uchinchidan,** davlatning normativ-huquqiy bazani mustahkamlash, sodir etilgan nojo‘ya qilmish uchun jazoning muqarrarligi tamoyiliga amal qilish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish muhim omillardan biri hisoblanadi;

☑ **to‘rtinchidan,** ayrim hollarda jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan joylardagi mutasaddilarga qonun buzilishini oldini olish va bartaraf etish holatlari bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish (shu qatori kuch va vositalarni jalb qilish savollarida) imkoniyatni berish boshqaruvda tezkorlikni va harakatlarda o‘z vaqtidalikni ta’minlaydi.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ – ГЛАВНЫЙ КРИТЕРИЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ

Аннотация. В данной статье в качестве критерия определена деятельность Национальной гвардии по обеспечению безопасности и стабильности общества. В частности, на расширенных заседаниях Совета Безопасности было проанализировано, что для обеспечения активного участия сил безопасности страны и Национальной гвардии в целях обеспечения безопасности и стабильности в обществе во взаимодействии с государственными и общественными организациями.

Ключевые слова: Стратегия действий, Стратегия развития, Вооруженные Силы, Национальная гвардия, Служба безопасности, Общественная безопасность, Общественный порядок, Стабильность, Национальная безопасность, Государственные и общественные организации.

ENSURING SECURITY AND STABILITY OF SOCIETY IN UZBEKISTAN IS THE MAIN CRITERION OF THE NATIONAL GUARD

Abstract. In this article, the activity of the National Guard in ensuring the security and stability of society is defined as a criterion. In particular, at the extended meetings of the Security Council it was analyzed that in order to ensure the active participation of the country’s security forces and the National Guard in order to ensure security and stability in society in interaction with state and public organizations .

Key words: Action Strategy, Development Strategy, Armed Forces, National Guard, Security Service, Public Safety, Public Security, Public Order, Stability, National Security, State and Public Organizations.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi 2017-yil 8-fevral. № 28 (6722)-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”., // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022-yil 1-fevral. №-544. – B. 1-3.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni. №-158-son. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519158
4. Xolbekov A. va boshqalar O‘zbekistonda ijtimoiy hayot transformatsiyasi Monografiya / “KALEON PRESS” – Toshkent. 2021 – B. 252.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” 2020-yilning 18-noyabr №O‘RQ-647-son. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/5128310.

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston”. 2023. – B.106.

7. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. 2019-yil 8-iyul, O‘RQ-548-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.07.2019 y., 03/19/548/3395-son).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son Farmoni O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. 08.09.2017 http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasida-mamuriy-islo-otlar-kontseptsiyasini-08-09-2017

9. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. O‘zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida. 2019-yil 8-iyul, O‘RQ-548-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.07.2019 y., 03/19/548/3395-son).

10. Mirziyoyev Sh.M. “Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik Kengashining 2018-yil 10-yanvarda bo‘lib o‘tgan kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutq // Xalq so‘zi. 2018-yil 11-yanvar. №-5.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xavfsiz shahar” loyihasini amalga oshirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar va yagona texnologik yondashuvni tashkil qilish to‘g‘risida № 343-sonli Qarori 2018-yil 7-may, https://lex.uz/pdfs/3730048

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” (05.06.2017-yil PF-5106). (www.lex.uz)

13. Olimjonov X.M., O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida harbiy-vatanparvarlik ishlarini olib borilishining ijtimoiy zaruriyati // O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti Axborotnomasi – Toshkent 2019 №-3. – B 114.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/5774

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-27-son, 29.11.2021 yil. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son). https://www.lex.uz/ru/pdfs/5749291

16. Jo‘rayev R.M. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarini zamonaviy talablar asosida amalga oshirish. // O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti Axborotnomasi. – Toshkent. №-1. 2020-yil – B. 5-8.

17. Jo‘rayev R.M. Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari, huquqiy asoslari va takomillashtirish masalalari // “Jamoat xavfsizligi ilmiy-amaliy jurnali” – Toshkent. 2021-yil – B. 3-6.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan

TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: jxu@umail.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Cambria» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 12,5. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 27.06.2024 y. Buyurtma № 188.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024

9 773030 323005

TAHRIRIYAT MANZILI:
100211, Toshkent viloyati, Chorsu qo'rg'oni.
Tel: (71) 230-32-71
Faks: (71) 230-32-50
E-mail: mg_hti@umail.uz